

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**Kasb ta'limi fakulteti 5140901-Kasb ta'limi (iqtisodiyot) bakalavr
ta'lim yo'nalishi talabasi Ochilov Xurshidning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «Kichik korxonalarni rivojlantirish muammolari» mavzusini
interaktiv metodlar asosida o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish**

Rahbar:



A.B.Qurbonov

Maslahatchi:



B.T.Shodiyev

Ish bajaruvchi:



X.B.Ochilov

«Himoyaga ruxsat etildi»

«KT va P» kafedrası

muđiri 

dots. Z.L.Botirov

« 20 » 2104 2013 y.

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»

«Kasb ta'limi» fakulteti

dekani 

dots. Q.S.Jumanazarov

« 20 » 2104 2013 y.

QARSHI-2013 y.

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Qarshi Tashkilot fakulteti
Qarshi Tashkilot (Ushbu institut) ta'lim yo'nalishi

«TASDIQLAYMAN»

KT. 8a 17 kaf.mudiri
prof. Z. D. Boturov
(imzo, f.i.sh)

«28» noyabr 2012 y

Bitiruv malakaviy ishi uchun

TOPSHIRIQ

Talaba Ozgulov Nurullo ga

1. Malakaviy ish mavzusi Qizilqumda qurilayotgan
rubonlar va qurilayotgan muhojirlar
shart shartlari va shartlari
shartlari va shartlari

institutning № 54317 buyrug'i bilan 28.11.2012 y. da tasdiqlangan.

2. Malakaviy ishni topshirish muddati

3. Malakaviy ish uchun ma'lumot Qizilqumda qurilayotgan
rubonlar va qurilayotgan muhojirlar
shart shartlari va shartlari

4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati)

Qizilqumda qurilayotgan muhojirlar
shart shartlari va shartlari
shart shartlari va shartlari
shart shartlari va shartlari


5. Chizmalar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar) Qizilqumda qurilayotgan
rubonlar va qurilayotgan muhojirlar
shart shartlari va shartlari

6. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar B. I. Boturov

7. Malakaviy ishini bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

Haftalar soni	Malakaviy ish bo'limlari	Malakaviy ishning hajmi beti	Umumiy hajmga nisbatan %	Bajarilganligi to'g'risidagi belgi	Izoh
I	Корич	2	1.9	Бажарди	ЯХШ
	Дан ва мавзун				
	тағриф	3	3	Бажарди	ЯХШ
II	Ўқитиш метод				
	дидактика	24	24		
	ўқувчи метод			Бажарди	ЯХШ
	салоҳия				
III	Сўраш метод				
	исловий метод	27	27		
	салоҳия			Бажарди	ЯХШ
	муҳ				
IV	Назорат дара				
	ўқувчи метод	18	18	Бажарди	ЯХШ
	каси				
V	Амалий маш				
	таҳли	18	18		
	ўқувчи метод			Бажарди	ЯХШ
	дидактика				
	ўқувчи метод				
	каси				
VI	Ўқувчи	5	5	Бажарди	ЯХШ
	Тоғриқилма				
	ағдирлар	4	4		
	Ўқувчи				
		101	100	Бажарди	ЯХШ

Malakaviy ish rahbari



Курбонов А

Topshiriq olingan kun

28. 11. 2012 й.

Talaba



Озирова Х.Б.

Kirish

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllanib va rivojlanib borishi sharoitida, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarda davlat bilan jamiyat a'zolari o'rtasida yangidan-yangi munosabatlarni shakllanishi sodir bo'lib, pirovard natijada aholining moddiy-farovonligi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlanishi uchun zamin tayyorlanadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda mahsulot va xizmatlar sifatiga bo'lgan talab va bunda raqobat munosabatlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi juda ham muhim bo'lib, bu jarayonga keyingi yillarda O'zbekistonda ham katta e'tibor berilmoqda. Chunki mamlakat iqtisodiyotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarda ishlab chiqarish hajmining o'sib borishi va mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini ortib borishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xo'jalik munosabatlarini isloh qilish, korxonalarining boshqarish mexanizmini qayta tashkil etish, ular faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmoqda, xususan, marketing faoliyatiga ham e'tibor kuchaymoqda va shu tufayli ham mahsulot sifati ortib, raqobatbardoshlik tamoyillaridan foydalanishga harakat qilinmoqda.

Raqobatbardoshlik muhitini shakllanishi va rivojlanishini mulkchilik shakllari turlicha bo'lgan xo'jalik sub'ektlari o'rtasida sodir bo'lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ob'ektiv zaruriyatdir. Shuning uchun ham Respublika Prezidenti I.Karimov: “ob'ektlarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jixatdan qayta tiklash va jaxon bozorida raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'z zimmasiga oladigan majburiyatlaridir”¹ deb ta'kidlab o'tdi.

O'zbekistonda va uning viloyatlarida, xususan Qashqadaryo qiloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishda raqobatbardoshlik munosabatlariga tayangan holda sifatli ko'rsatkichlarga erishish o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib, bu jarayonga shu kun talablaridan kelib chiqib, yondashish lozim. Shuning uchun ham iqtisodiyotda qo'llaniladigan turli mexanizmlardan foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari mahsulotlarini sifatini oshirish va bunda raqobatbardoshlik tamoyillarini keng qo'llash yo'llarini o'rganish tadqiqot mavzuining dolzarbligidan dalolat beradi va ushbu tadqiqot ishini olib borishni zarurligini ko'rsatib berdi.

1. Fan va mavzuning tavsifi

1.1. Kasb-hunar kollejlarda «Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi» fanining tutgan o‘rni va fanlararo bog‘lanishi

«Ta’lim tug‘risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim turlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Uzlüksiz ta’limning eng muhim bo‘g‘ini hisoblangan ushbu ta’lim turi ishlab chiqarish uchun malakali kadrlar tayyorlab beradi. Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlarda ta’lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablari asosida tashkil qiladigan, salohiyatli, yangicha fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko‘rsatadigan yuqori malakali iqtisodchi-pedagoglarga bo‘lgan ehtiyoj katta.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan malakali kadrlar «Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi» fanini mukammal o‘rganish bilan bir qatorda umum iqtisodiy fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ishlarini yuqori saviyada tashkil etish ko‘p jihatdan mamlakatimizdagi xalq xo‘jaligining turli sohalarini mutaxassislar va malakali iqtisodchilar bilan ta’minlanganligiga bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida kasb-hunar kollejlarda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan malakali kadrlarni tayyorlashni taqazo qiladi. Shunday ekan kasb-hunar ta’limi fanlar blokidagi «Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi» fanining qishloq xo‘jaligi korxonalari, dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun malakali kadrlar tayyorlab berishda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda har bir jamiyat a’zosining oldida Bozor iqtisodiyoti qonunlari, uning O‘zbekiston Respublikasida qanday amalga oshirilayotganini, bu qonunlarni ishlab chiqarishga tadbqiq etishni bilishi ta’kidlanadi. Kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan malakali kadrlarning «Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi» fanini chuqur o‘rganishi, shuningdek o‘quvchilar tadqiqot ishlarida muayyan ko‘nikmalarga, ushbu fanlar tizimida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

1.2. Tanlangan mavzuning dolzarbligi

«Ta'lim tug'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalarni milliy ta'lim-tarbiya an'analari asosiga qurish masalalari ko'tarilgan va shu muammoni hal qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan. Bu ikkita Qonun hujjati asosida amalga oshirilayotgan mislsiz islohatlar kasb-hunar ta'limi tizimida ham tub islohatlarning o'tkazilishini ta'minlab, har bir o'quvchi va o'qituvchining o'z burchlari hamda vazifalarini ongli bajarishga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdir. Shuningdek, ta'limning samarali kechishini ta'minlash omili sifatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning texnik vositalaridan o'z o'rnida foydalanishni talab qiladi. Aynan ta'lim tizimimiz uchun yangi pog'ona bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida zamonaviy o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish masalalari o'z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish, o'quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirish borasida ta'lim metodlari va o'qitishning texnik vositalarining tutgan o'rnini samarali va ahamiyatli bo'lib, u asosan quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

- o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga aniq erishishni;
- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida aloqalarning takomillanishi;
- o'quvchining bilish faoliyatini jonlantirish va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishishni;
- motivatsiyaning yuqori daraja bo'lishi;
- o'qitilgan material yaxshi eslab qolinadi;
- jonli muloqotga kirishish ko'nikmasi takomillashadi;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan (qiziqish) munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi va muammolarni yechish ko'nikmalari shakllanadi.

Mana shunday mulohazalarga asoslangan holda tanlangan mavzu dolzarb ahamiyatga ega.

1.3. Kasb-hunar kollejlarning maqsad va vazifalari

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirishi va tanlangan ixtisosliklarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Ta'lim tizimida kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb - hunar o'quv yurtidir. Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar ta'limini tashkil etish uchun quyidagilar zarur:

- kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishning normativ bazalarining ishlab chiqarish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- kasb-hunar ta'limini davlat standartlari asosida ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb - hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jug'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

- kasb-hunar kollejlarning moddiy - texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Kasb-hunar kollejlari ta'limi sifatini yaxshilash maqsadida professor-o'qituvchilar davlat attestatsiyasidan o'tkazilishi va ta'lim oluvchilarning bilimini reyting asosida baholash tizimi tadbiq etilishi lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichida ko'zda tutilgan masalalarni ijobiy hal etish sohasida kasb-hunar kollejlari faoliyati ham yanada yaxshilandi. Shuning natijasi o'laroq, kasb-hunar kolleji o'quvchilariga o'z yo'nalishlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

2. O'QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

2.1. Umumdidaktik tamoyillar

Ta'lim jarayonida ukituvchilarning ukitish konuniyatlarini bilishigagina emas, balki ularni amalga oshirish uchun kulay sharoitlar yaratish xam muximdir. Bunga esa ukuv jarayonini tashkil etishda ukitishning asosiy koidalariga tayanish kerakligini chukur anglagan takdirdagina erishish mumkin. Bu koidalar didaktikada ukitish nazariyasi deb yuritiladi.

Kasb-xunar ta'limida didaktik tamoyillar: ta'limni ilmiy asosda tashkil etish; uning tarbiyaviy axamiyati, muntazamligi va izchilligi; kurgazmaliligi, mazmunining ukuvchilarga mos bulishi; ukitishning faolligi va ongliligi; bilim, kunikma va malakalarni puxta uzlashtirish va xar bir ukuvchiga yakka tartibda yondashishdan iborat bo'ladi.

Ukituvchi ukuvchilarga mashina va jixozlarning tuzilishi, ishlash tamoyili va mexnatni tashkil etishni chukur urgatishi, ularni kishlok xujaligini yanada rivojlantiri rejalari, fan va texnikaning yutuklari, olimlar, muxandis va ishchilarning xizmatlari xakidagi ma'lumotlar bilan xam tanishish lozim.

Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyili: ukuvchilarning ta'lim olish iglarini faollashtiruvchi, akliy kobiliyatlarini ustiruvchi, ularni mustakil bildim olishga urgatuvchi usullarni tanlash va texnikaviy atamalardan foydalanishga odatlantirishdir. Ta'limning tarbiyaviy xarakteri: ukuvchilarga kasbiy bilim berish, ularning akliy usishi xamda dunyokarashining shakllanishi uchun sharpoit yaratadi.

Ta'limni amalga oshirishda ukituvchi ukuvchilarga uz kasblariga muxabbat, ongli intizom, uz mexnatini rejalashtira bilish, jamoa bilan ishlay bilish kunikmalarini tarbiyalashi lozim. Xar bir darsdakuvchilar bilim va malakalarni egallashlari bilan birga ularning dunyokarashi xam shakllana borishi zarur. Darslar shu maksadga yunaltirilishi keark.

Kurgazmalilik tamoyili: urganilayotgan xodisa va narsalarni jonli idrok etish asosida uzlashtirishni nazarda tutadi.

Ta'limning kurgazmalilik tamoyili ukuv materialini anik obrazlar orkali bevosita idrok kilishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida kurgazmali vositalardan tugri foydalanish ukuvchilarning texnikaga oid bilimlarni puxta uzlashtirish olishiga, malakalarining oshishiga yordam beradi.

Agar kurgazmali kurol biror ukuv materialni ifodalash, kursatish vositasi bulsa, nutk asosiy, kurgazmali kurol esa yordamchi vosita buladi. Agar kurgazmali vosita kuzatishni rivojlantirish uchun kullanilsa, nutk kiska bulishi, fakat asosiy vositaga, ya'ni kuzatishning maksad va vazifalarini amalga oshirishga karatilishi kerak.

Bilimlarni egallash jarayonida narsa va xodisalarni kuzatish, sezish va idro ketishning muximligini ifodalagan Ya.A.Komenskiy shunday yozgan edi: «Ukuvchilar sezib idrok etishi mumkin bulgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ya'ni kuish mumkin bulgan narsalarni kuz bilan kurib, eshitish mumkin bulgan narsalarni kulok

bilan eshitib, xidi bor narsalarni xidlab kurib, ushlab sezish mumkin bulgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak. birdaniga kup sezgilar yordamida idrok etish mumkin bulgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar ishtirokida idrok etish lozim. Bolalarga bilim berish uchun umuman xamma narsaga bevosita kuzatish va sezgilar asosida ukitish kerak».

Mana shu talablarni bajarish uchun nazariy darslarda plakat, videofilm, diafilm, yonilgi va moylash materiallari, moylash va yonilgi bilan ta'minlash uskunolari va boshkalar bulishi kerak.ta'limning ukuvchilarga mos bulishi tamoyili ularning akliy, jismoniy va yosh xususiyatlarini xisobga olishni talab kiladi.

Onglilik va faollik tamoyili ta'limi ukuvchilar ilmiy bilimlarni ongli, ijodiy uzlashtiradigan yusinda tashkil etishni kuzda tutadi. Bunga esa ukuvchilarning dars vaktidagi juda faolligi bilan erishish mumkin. Bu tamoyil ishlab chikarish ta'limi jarayonida kasbiy malakalarni ongli uzlashtirishda, undagi ish-xarakatlarni farklay bilishda kurinsa, amaliy iopshiriklarni bajarishda mazkur tamoyilning natijasi mexnat usullari tugri va belgilangan vaktida bajarilishida, mashinani boshkarishda pedal va richaglardan tugri va tez foydalanishda, bilim va malakalarni yangi ob'ektlarga tez va anki kuchirishda namoyon buladi.

Malakalarni puxta uzlashtirish tamoyili. Bu tamoyilga kura ukituvchi amaliy, laboratoriya mashgulotlarining samaradorligini nazorat kilib turadi. Malakalarning puxta uzlashtirilishini ta'minlash maksadida urganilgan materiallar muntazam ravishda takrorlab boriladi, yangi materialni mustaxkamlash tartiblari kulaniladi.

Bu tamoyil ishlab chikarish ta'limi jarayonida kuyidagicha amalga oshiriladi:

- mutaxassislikni mustaxkam egallash maksadida mexnat usullarini kup marta takrorlash;
- mashina xaydashni urgatish vaktida ukuvchilarning turli malakalarni mustakil egallashlariga axamiyat berish;
- ukuvchilarda texnikaviy adabiyot va ma'lumotlardan foydalanish kunikmalarini xosil kilish;

malakalarni shakllantirishda oddiy mashklardan murakkab mashklarga utish va darslarni ishlab chikarishga yakin sharoitda olib borish.

Xar bir ukuvchining uziga xos tomonlarini xisobga olish uchun ukituvchi va usta darsni boshlashdan oldin ularning tavsifnomasi bilan tanishishi va xar biri bilan suxbat utkazishi kerak.

Nazariy ta'lim darslarining tashkiliy shakllarini tugri tanlash katta axamiyatga ega. Bunda darsni utish joyi va tartibi, ukuvchilarning faoliyati xamda darsda ularni guruxlarga axratish, dars davomida ukituvchi bilan ukuvchilar orasidagi alokaning moxiyati kuzda tutiladi. Darslarning tashkiliy shakllari kasb-xunar kollejining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari bilan belgilanadi va ukitish usullariga boglik buladi.

2.2 Dars va uning turlari

Dars deganda ukituvchining ukuv guruxiga uyushgan, umuman tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi nisbatan uzgarmas ukuvchilar bilan mashgulot utkazishi tushuniladi.

Dars kasb-xunar kollejida ta'limni tashkil etishning asosiy shakli xisobalanadi.

Xar bir dars ukuv jarayonining bir kismi xamda bilim, kunikma va malakalarni egallashning bir butun mantikiy yakunlangan boskichidir.

Xar bir dars kuyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Maksud va mazmunning anikligi kabi talab darsning butun materialni va uning xar kaysi kismini tugri tanlash bilan amalga oshadi.

2. Ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning birligi – ta'limning tarbiyaviy xarakteri uning ob'ektiv konuniyati xisoblanadi. Shu bilan birga ukituvchi ukuvchilarning kasbiy bilimlarini shakllantirishda xamma imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

3. Darsning xar kanday boskichida ta'limning eng kerakli metodlarini belgilash, umuman olganda, ukitish metodini tugri tanlash ukituvchi mexnatining samaradorligini va ukuvchilarning eng yukori faolligini ta'minlaydi, ukuvchilarga chukur va puxta bilim berishni, ularda bilimlarni amalda tadbik etish malakalarini shakllantiradi.

4. Darsda ukuvchilarning jamoa va yakka tartibdagi ishini tugri kushib olib borish – ukituvchi dars davomida butun gurux bilan ishlashdan tashkari, ukuvchilarning yakka tartibdagi topshiriklar buyicha mustakil ishlashini xam keng joriy kilishi lozim.

5. Darsni samarali tashkil etish talabi darsga ajratilgan vaktdan unumli foydalanishni, ukituvchi va ukuvchilarning darsga yaxshi tayyorlanishini, mashgulotning yangi texnikaviy jixozlar bilan ta'minlanishini, uning barcha elementlari va strukturasining puxta tuzilishini takozo etadi.

Didaktik maksadlar buyicha darsning kuyidagi turlari mavjud:

1. Yangi bilimlarni urganish darsi. Bunda ydarslarda mavzu va kuzlangan maksad aytilib, yangi ukuv materialni bayon etiladi va ukuvchilarning mustakil ishlashi uyushtiriladi, uyga topshiriklar beriladi. Darsning bu xili ukuv materialini oson uzlashtirish mumkin bulgan xollarda utkaziladi.

2. Umumiy yoki aralash dars. Bunday darslarda xar xil didaktik masalalar xal etiladi va uy topshiriklarini xamda ukuvchilarning bilimlarini tekshirish, yangi mateialni bayon kilish va boshkalar amalga oshiriladi. Bular maxsus fanlarni urganishda eng kup tarkalgan. Aralash dars ukuv jarayonining bir-biriga eng yakin

zvenolarini uz ichiga oladi, bu esa ukuvchilar bilimlarini puxta va ongli uzlashtirishni ta'minlash uchun muximdir.

3. Bilimlarni mustaxkamlash darsi. Bunday darslarda oldin urganilgan materiallar yuzasidan ukuvchilar bilan suxbatlar utkaziladi, knofilmlar kursatiladi, ilgari olgan bilimlari esga solinadi, faktlar va tushunchalar ukuvchilar xotirasida mustaxkamlanadi, natijada bilimlar ancha puxtalanadi.

4. Sinash-tekshirish darsi. Bunday darslarda mavzu, bulim yuzasidan ogzaki savol-javoblar, test yordamida yozma yoki grafik usulda nazorat-tekshirish ishlari utkaziladi. Ulardan kuzlanadigan maksad xar bir ukuvchining tayyorgarlik darajasini asosli baxolash uchun kerakli ma'lumotlar olish, ya'ni bilimlari kanchalik ongli va puxtaligini aniklashdan iborat.

5. Muammoli dars. Bu darsdan maksad ukuvchilar kuyilgan muammolarni echa olish yoki olmasligini ankilashdir. Bunday darslar ukuvchilar maxsus fanlardan ma'lum bilim, kunima va malkaga ega bulganligidan keyin utkaziladi.

Shu asosiy dars turlarining strukturasi kuyida keltiradi:

Yangi bilimlarni urganish darsi. 1.Tashkiliy kism. 2.Yangi ukuv materialni bayon kilish va mustaxkamlash. 3.Uyga topshirik berish. 4.Darsni yakunlash.

Umumiy yoki aralash dars. 1.Tashkiliy kism. 2.Uyga berilgan topshirikni tekshirish. 3.Ukuvchilar bilimini ogzaki (yakka tartibda, bir yula yoki aralash xolda) tekshirish. 4.Yangi ukuv materialni bayon kilish. 5.Yangi ukuv materialini mustaxkamlash. 6.Uyga topshirik berish. 7. Darsni yakunlash.

Bilimlarni mustaxkamlash darsi. 1.Tashkiliy kism. 2.Uyga berilgan topshirikni tekshirish. 3. Ukuvchilardan surash, ukuv materialini mustaxkamlash. 4. Uyga topshirik berish. 5. Darsni yakunlash.

Sinash-tekshirish darsi. 1.Tashkiliy kism. 2.Topshirikni tushuntirish. 3. Ukuvchilarning savollariga javob berish. 4. Ukuvchilarning taopshiriklarni bajarishi. 5. Bajarilgan ishlarni ukituvchiga topshirish. 3. Uyga topshirik berish. 4. Darsni yakunlash.

Muammoli dars. 1. Tashkiliy kism. 2. Muammoni bayon kilish.3.Muammoni xal kilish yullarini kursatish va xal etish. 4. Natijalarni muxokama kilish. 5.Ukituvchining izoxlashi va umumlashtirishi. 6. Uyga topshirik berish. 7. Darsni yakunlash.

2.3. Nazariy dars metodikasi

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ukituvchi va ukuvchilar faoliyatining yunalishini, ukitish jarayonining kanday tashkil etilishi va olib borilishini xamda ukituvchining ish xarakatlarini belgilaydi. Bu metodlar ukuvchilar bilim, kunikma va malakalarini uzlashtirishi uchun ukituvchi tomonidan kullaniladigan usullar yigindisini uz ichiga oladi.

Ta'lim tizimida ukitish metodlari bilan birga «Usul» va «Vosita» atamalari xam ishlatiladi.

Usul - ma'lum ukuv materialni utishda kullanilayotgan asosiy ukitish mettdodi bilan birga ikkinchi bir ukitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish kurishdir.

Vosita - ukitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bulgan yordamchi ukuv materiallari - asbab, kurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir. Ta'lim metodlari ukitish jarayonida va pedagogik tafakkurning kup asrlik rivojlanishi tarixida muxim uzgarishlarga duch keladi. Pedagogikada ta'lim metodlarini tasniflash va belgilashga bir xil yondashish mavjud emas. Ayrim mualliflar ukitish metodlarini belgilashda bili sh manbalarining xususiyatlarini asosiy deb xisoblaydilar. Chunonchi, ogzaki (suxbat, tushuntirish, bayon kilish, ukuvchilarning texnik adabiyotlar bilan mustakil ishlashi va boshkalar); kurgazmali (kurgazmali kurol, kinofilm va diafilmlarni namoyish etish; mexnat usullarini kursatish, ukuvchilarni mustakil kuzatishlari va boshkalar); amaliy (mashklar opersiyalari, ish usullari, amaliy laboratoriya mashgulotlari) va boshkalar.

Keyingi paytlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotida ukuvchilar bilish faoliyatining xarakteri buyicha tasniflanadigan metodlar kullanilmokda.

Ta'lim jarayonida kullaniladigan metodlar ukuvchilarning faolligini oshirishi, urganilayotgan ukuv materialni ukuvchilar chukur uzlashtirishini ta'minlashi lozim. Bu talablarga I.Ya.Lerner va M.N. Skatkin tomonidan taklif etilgan metodlar tizimi tulik javob beradi. Ularning asosini ukuvchilarning bilish faoliyati tashkil etadi.

Tushuntirish - kurgazmali metod. Ukituvchi xar xil vositalar yordamida ukuchilarga tayyor ma'lumot beradi va ular ma'lumotni kabul kiladilar, anglaydilar va xotirada saklaydilar.

Eslash metodi. Ukituvchi topshiriklar tizimi bilan ukuvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi. Ukuvchi esa tasvirlar buyicha malakalarni egallaydilar. Ukuvchilar bilmining xajmi ortib borgan sari birinchi metod bilan ikkinchisini kushib foydalanish kuchayib boradi.

Muammoli metod. Ukituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, dars davomida uni xal kilish yullarini tushuntirib boradi va xal kiladi. Ukuvchilar ukituvchi bilan birgalikda muammoni xal kilishda faol ishtirok etadilar.

Kiman izlanish yoki evristik metod. Ukituvchi ukuv muammosini atyib. Uni yordamchi kislarga buladi va izlanish yulini bulgailaydi, ukuvchilar esa uz-uzlarini

tekshirib muammoni xal kiladilar. Bunda ukituvchi ukuvchilarga ayrim yunalishlarni, masalan, oldindan tuzilgan savollarni aytib beradi.

Tadkikot metodi. Ukuvchilarning yangi muammoni xal kilishdagi mustakil izlanishi va ijodiy faoliyatini tashkil etish usulidir. Bunda ukituvchi ularga tayyor muammoni bayon kilmaydi. Uni ukuvchilarning uzlari ukuv smaterialini uzlashtirish jarayonida topadilar, shundan sung ukituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi.

An'anaviy ukitish metodi. Ogzaki bayon kilish, tushuntirish, suxbat, ma'ruza, ukuv adabiyotlarini ukish; tajribalar utkazish, tabiiy ob'ektlarni, kurgazmali vositalarni namoyish etish; mashk, yozma ish, grafik ish, laboratoriya ishlari-bayon etilgan metodlar tizmida volsita va usul sifatida namoyon buladi, ukituvchi esa ular yordamida u yoki bu metodlardan foydalanib darsni yukori saviyada utkazadi.

2.4. Kasb-hunar kollejlarda o'qitishning mazmuni

Kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan ixtisosliklarga ega bo'lishni ta'minlaydi hamda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejlarda ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning bilish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning ma'lum yig'indisini faoliyat va munosabatlarining tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natijasi sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Mamlakatimizda kasb-hunar kollejlarda ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli, bilimli yoshlarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

o'quv rejasi – davlat hujjatidir. o'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. o'quv rejalar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Shuningdek, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asosan tuziladi.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. o'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. o'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. o'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi.

Dasturning asosiy vazifasi - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linish, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida

xizmat qiladi. Shuningdek, u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

Darslik o'quv jarayonining zarur qismidir. Darslik - o'quvchilarning ikkinchi «muallimi», chunki u, avvalo o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.

Darslik -o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qullanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va hokazolar shular jumlasidandir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurti bo'lib, unda o'quvchilar tegishli sohalar bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib, kasb-hunarga o'rganadilar. Demak, uch yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim yo'nalishlarini yoshlar o'zi iqtidorlari va istaklaridan kelib chiqib, ixtiyoriy tanlaydilar.

2.5. Darsning tashkiliy shakllarini tanlash va asoslash.

Ta'limning tashkiliy shakllari

Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Uzlüksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi. Y. A. Komesnkiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon mamlakatlariga tadbiq etilmadi. Ularda 1917 yilga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi (shakli) davom etib keldi. Ushbu maktablarda 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir xonada bir vaqt maboynida mashg'ulot olib borilardi. Shu boisdan bolalarning bilim darajalari va o'zlashtirishi ham turlicha bo'lar edi.

O'lkamizga ta'limning mukammal jamoa shakli bo'lgan sinf-dars tizimi XX asr boshlarida kirib keldi, shu asnoda rus tuzim maktablari, gimnaziyalarda o'quv jarayoni sinf-dars tizimida olib borila boshladi. Aynan shu davrda Turkistonda jadid usulidagi maktablarning kirib kelishi sinf-dars tizimiga asoslanadi. Hozirgi davrgacha guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

Umuman aytganda, ta'limni boshqarish o'qituvchi o'qish jarayonining tuzilish elementlari, xususan o'quv materialining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to'g'ri amalga oshuvi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iborat.

2.6. Dars -o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy tashkiliy shakli

Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning barcha didaktik elementlari mujassamlangan. Dars - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy tashkiliy shaklidir. Sinf-yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir.

Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir.

Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.
2. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.
3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini - darsning tashkiliy daqiqalari deb ataladi. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish muhimdir. Tajribali va mahoratli o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa – butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi.

Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib o'qtirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi darsni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi, turli xil ta'lim metodlaridan unumli foydalanish va o'quvchilarga ko'proq muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularga yangi materialni bayon qilishi dars sifatini oshiradi.

Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

- a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni o'qtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. YA'ni o'qituvchi bayon qilayotgan mavzu o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

v) Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi (og'zaki, yozma mashqlar va laboratoriya-tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i lozim.

g) dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallari boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega.

Darsda o'quv – tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan deb hisoblash qabul qilingan. Shunga asosan o'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim.

2.7. Dars, uning turlari va tuzilishi, darsga bo'lgan talablar

Ma'lumki, dars jarayoni - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. o'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'log'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i, shuningdek xilma xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq zarur.

5. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

6. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

7. Darsda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilar:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi (ma'ruza).

2. o'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.

3. o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

4. Takrorlash – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi). Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirishini nazorat qilib borishiga yordam beradi. Demak, dars boshdan – oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi

bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (savol-javob), yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish (masala va misollar yechdirish, grafik ishlari olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi-tushuntirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va h. k) kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin.

Dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo'lavermaydi. U o'qitish usuli bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil qiladi. Darsning tuzilishi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolat darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Masalan, aralash dars turining tuzilishi:

uy vazifalarini so'rash, tekshirib ko'rish;

yangi materiallarni bayon qilish;

yangi materiallarni mustahkamlash;

uy vazifalarini topshirishni o'z ichiga oladi. Bunda:

a) uy vazifalarini ko'rish suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining birinchi qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o'qituvchi tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma'ruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining ikkinchi qismi, darsning ikkinchi bosqichi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining uchinchi qismi, uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishini to'rtinchi qismi, darsning to'rtinchi bosqichidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan dars turlarining hammasi o'z tuzilishiga ega bo'lganidek, ma'lum bosqichlarga ham ajraladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma'lum bir qismi yoki yirik mavzu o'tib bo'lganidan keyin o'tkaziladi. Bunda o'tilgan materiallarni takrorlash – qayta esga tushirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan mavzularni qamrab olgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan savollar orqali umumlashtirish nazarda tutiladi.

Kasb-hunar kollejlari o'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma xil faoliyatiga bog'liq: yoshlarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni tashkil eta bilish xamda o'tkazish va hakoza. Bularning barchasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z soxasini mukammal bilishni, bolalarni sevishni talab etadi.

Xullas, kasb-hunar kollejlari o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

2.8. O‘qitish metodini tanlash va asoslash

Ta’lim metodlari

Ta’lim usuli-o‘qituvchi (pedagog) bilan o‘quvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o‘zaro aloqalar

ni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. Ta’lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul kilish, anglash, esda saklash va amalda kullay olishni nazarda tutadi. Demak, o‘qitish usullari har ikkala faoliyatning, ya’ni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llaniladigan yo‘llarni, usullarni o‘z ichiga oladi. Dars jarayonida o‘tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati turlicha yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. O‘qitish usullarini tanlash, birinchidan darsda ko‘zda tutilgan o‘quv maqsadlariga bog‘liq

O‘qitish usullari o‘quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli usullarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bulmaydi. Usullar bilimlarni uzatish va qabul kilish xarakteriga qarab so‘z orqali ifodalash, kurgazmali va amaliyga bo‘linadi. Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchi larning bilim faoliyatiga munosib ravishda kuyidagi usullar: tushuntirish-illyustrativ (informatsion retseptiv), produktiv (maxsuldor), muammoli bayon, xususiyl kidirish yoki evristik xamda yarim tadkikot uslublari kullanilishi mumkin.

Ta’limning og‘zaki usullariga: xikoya, ma’ruza, suxbat va boshqalar kiradi. Bu usullarni kullashda o‘qituvchi (pedagog)suz vositasida o‘quv materialini bayon kiladi, tushuntiradi, o‘quvchi (talaba)lar esa tinglash, eslab kolish orqali uni faol qabul kiladilar.

Xikoya. Ushbu usulda o‘quvchi (talaba)larga beriladigan bilim mazmunini ogzaki bayon kilish kuzda tutiladi. Xikoyaning bir necha turi mavjud: xikoya-muqaddima, xikoya-bayon, xikoya-xulosa. Xikoya usulini qo‘llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Bular: dikqatni faollashtirish, bayon kilish, takkoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash qabi mantikiyl tadbirlardir. Xikoya samaradorligining shartlari: rejani kunt bilan uylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta‘minlash, misol va kurgazmalarni muvaffakiylatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

Suhbat usuli atroflicha uylangan savollar yordamida o‘qituvchi (pedagog) bilan o‘quvchi (talaba)larning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va konuniyatlarni uzlashtirishga olib keladi. Suxbat usulini kullanishda savollarni kuyish (asosiy, kushimcha, yulovchi va x.k.), o‘quvchi (talaba)larning javob va muloxazalarini muxokama kilish, suxbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan joydalaniladi. Savollar yaxshi qabul kilinishi uchun yetarlicha xajmdor bulishi lozim.

Ta’limning kurgazmali usulini shartli ravishda ikki katta guruxga bulish mumkin; kurgazmali va namoyish kilish usullari.

Kurgazmali usuli, o‘quvchi (talaba)larga namoyish etiladigan kullanmalar-xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, alomalarning surati va boshqalarni kursatishni kuzda tutadi.

Namoyish kilish usuli, odatda, kurulma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi apparatlarni namoyish kilish bilan boglik. Namoyish kilish usuliga, shuningdek,

diafilm, kinofilm kursatishni xam kiritishgan. Kurgazmali usullarni kullashda kuyidagi usullardan foydalaniladi; kursatish, yaxshi kurinishni ta'minlash, utkazilgan kursatuv, namoyish va xokazolar natijalarini muxokama kilish. O'qitish amaliyotiga shaffof plyonkada tayyorlangan rasm, chizmalar sinfni korongulashtirmasdan kursatuvchi LETI apparati, kodoskoplar va kompyuterlar kirib keldi.

O'quv kinosini kullash usuli ta'lim amaliyotida odatdagi xodisa bulib koldi.

O'quv jarayonida filmlardan foydalanishga tayyorlanishda o'qituvchi (pedagog) uni oldindan kurishi, namoyish kilish davomida o'quvchi (talaba)lar oldiga kuyiladigan asosiy savollarni tuzishi, tegishli laxzasida kursatiladigan parchalarni, savollarini tuzishi, aloxida parchalarning ajratishi lozim. Nixoyat, film buyicha yakuniy suxbat rejasini belgilashi kerak. Shunday kilib, suz va kurgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato bular edi, chunki ta'lim vazifasining uziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud kurgazmali vositalarning xarakteri, shuningdek o'quvchi (talaba)lar tayyorgarligi darajasidan kelib chikib, xar bir konkret xolatda ularning eng okilona kushiluvi tanlanadi.

Amaliy uslublar ta'lim-tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini qamrab oladi. Amalda kuyidagi usullar kullaniladi: vazifa (maksad)ni kuyish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, taxlil kilish, kamchiliklar sababini aniklash, maksadga tulik erishish uchun ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish. Amaliy usullar ta'limni suz orqali ifodalash va uni kurgazmali uslublar bilan mustaxkamlash jarayoni bilan chambarchas bogliklikda kullaniladi. Ogzaki tushuntirish va kurgazmani kursatish, odatda, mashkni bajarish jarayonining uzi bilan bir vaktida olib boriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish. Agar ta'lim-tarbiya jarayonlari o'quvchi (talaba)larda faol xarakat, bilim va kunikmalar orttirish ishtiyokini uygotsagina, bu jarayon samarali kechadi va sifatli natijalar beradi.

O'quv faoliyatini bunday tashkil kilish uchun uning barcha usullari-ogzaki, kurgazmali, amaliy, reproduktiv, kidiruv, induktiv xamda deduktiv, shuningdek mustakil ish usullaridan foydalaniladi. Bu jarayonda o'quv faoliyati, uning mazmuni, shakli va amalga oshirish usullariga bulgan munosabatda ijobiy xissiyotning yuzaga kelishini ta'minlash muximdir. Shuning uchun xam bunday xolatda dikqat, eslab kolish, anglash jarayonlariga o'quvchi (talaba) larning chukur ichki kechinmalari kushiladiki, bu jarayonni kizgin kechadigan kiladi va maksadga erishish ma'nosida ancha samarali buladi.

O'quv faoliyatiga kizikishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli ragbatlantiruvchi ta'sir kursatishi uchun ta'lim prinsiplarining qator talablariga javob berishi lozim. Bunda ta'lim mazmunining ragbatlantiruvchi ta'sirini oshirishdagi ayrim maxsus usullar xam mavjuddir. Ta'limning ragbatlantirish va asoslash usullariga bilish baxsi xam kiradi. Chunki o'quv baxsi o'qishga kizikishni ragbatlantiruvchi usul rolini uynaydi.

Demak, ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz.

2.9. An'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlari

o'qitishning samarali borishi, o'quvchi-talabalarning har bir fanni chuqur o'zlashtirib olishlari, shuningdek ular bilimlarni ongli va mukammal egallashlari uchun hamda yoshlarda mustaqil va ijodiy faoliyat-fikrlarining rivojlanishiga bevosita o'qituvchining ta'lim usullaridan keng va mohirona foydalana olishiga bog'liqdir.

Pedagogika tarixidan, pedagogika amaliyotida ham o'qitish usullarining juda katta boyligi to'plangan. Ta'lim jarayonida ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi. o'qitish usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati tug'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan.

Ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishida, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallashlari uchun o'qituvchining asosiy vazifasi darsda samarali usul-metodlardan foydalanib, o'quvchi-talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlash, shuningdek ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir.

Darsning an'anaviy metodlari (usullari) quyidagilar:

1. Ta'limning og'zaki metodlari.
2. Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
3. Ta'limning ommaviy metodlari.
4. Ta'limning mantiqiy metodlari.
5. Ta'limning mustaqil ishlash metodlari.
6. Ta'limning nazorat va o'z-o'zini nazorat turlari farqlanadi.

Ta'limning og'zaki metodlari yordamida o'quvchilar ifodali nutqqa, ma'noli va mazmunli gapirishga, suhbatdoshini tinglashga o'rganadilar. Suhbat jarayonida o'quvchilardan tasavvur-obrazlar shakllantiriladi. Suhbat jarayonida o'qituvchi vaziyatga qarab dars mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. Rejalashtirilgan savollarni olib tashlaydi yoki yangi savollar kiritadi. Savollar o'quvchilar uchun og'ir yoki yangil bo'lmasliklari kerak. Og'zaki metodning boshqa metodlardan afzallik tomoni shundaki, o'qituvchining xissiy nutqi o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb etadi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari keyingi yillarda dars jarayonida asosiy o'rinni egallay boshladi. Yangi texnika va kompyuterlarni maktablarda paydo bo'lishi va undan darsda foydalanish dars samaradorligini keskin oshiradi. Ayniqsa, zamonaviy kompyuterlar, proyektor, audiovizual vositalar, kadaskop tipidagi o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda darsni tashkil etish o'quv jarayonini yanada qiziqarliligini oshiradi.

Noan'anaviy darslar. Hozirda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida kengroq joriy etilishi zamirida o'quvchi-talabaga berilishi lozim bo'lgan ilmiy bilimlar ko'lami o'qitish usullari va shakllarining doirasini kengashtirish zarurligini taqozo etmoqda. O'rta va oliy maktablarda dars berishning noan'anaviy metodlariga quyidagilar kiradi: Dars-ma'ruza, dars-seminar, dars-munozara, dars-konferensiya, dars-ekskursiya, dars-musobaqa (konkurs darslari) mustaqil ishlar darslari va boshqalar mavjud. Shularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Dars-ma'ruza. O'rta maktabda dars-ma'ruza yuqori sinflarda qo'llanilib, fanning asosiy g'oya va muammolarni ochib berishda yuqoridagi metoddan foydalaniladi. Ta'lim maktablarida ma'ruza-darslari savol-javoblar, ko'rgazmali va boshqa metodlar bilan qo'shilgan holda o'tkaziladi. Masalan: 5-10 minutlik ma'ruzadan so'ng (ya'ni nazariy bilimlar berilgandan keyin), o'quvchilar ga texnik vositalar yordamida berilgan bilimlar amalda ko'rsatiladi. Shuningdek, ma'ruzaning bir qismida nazariy ma'lumotlar berilsa, ikkinchi qismini savol-javoblar, munozara va shaklda tashkil etish mumkin.

2. Muammoli-dars. Muammoli-dars o'tish mazmuni suhbat darslaridan unchalik farq qilmaydi. Ammo, o'rta maktabda o'quvchilarni izlanish jarayoniga yo'llashda o'qituvchining faolligi ko'proq talab etiladi. Muammoli dars quyidagi qismlardan iborat bo'lish mumkin:

- Tabiiy, ijtimoiy, texnik, texnogen, agrobiologik hodisalar, jarayonlar o'rtasida ziddiyat, qarama-qarshilik mavjudligi aniqlanadi.

- Har xil hodisa, jarayon va boshqalarning yuzaga kelish sabablari rivojlanishi, kechishi va yakuni haqidagi farazlar ilgari suriladi.

- O'quvchilar (talabalar) bilan birgalikda izlanish natijasida ilgari surilgan farazning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi isbotlanadi.

- Har xil tizimlar, hodisalar, jarayonlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari haqida xulosa chiqariladi va narsa, hodisalarning yangi tomonlari ochiladi.

3. Dalada-dars: Tabiat bilan bog'liq darslarni (biologiya, agrobiologiya, ekologiya va boshqalar) aynan shu mavzu bilan bog'liq joyda, dala, bog', tog'. tajriba maydoni va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Masalan: ayrim darslarni ochiq havoda, ayrim tabiiy narsalarni: o'simliklar, hayvonlar, parrandalarni namoyish qilish orqali jonli tarzda o'tish mumkin.

4. Dars-drama: AQShlik olim Moreno 1934 yilda oila, shaxsiy va ish faoliyatida yuz beradigan nizoli vaziyatlardan chiqish, psixologik vaziyatlar yechimini topishda dramatik teatr tajribasidan foydalanish mumkinligini qator tadqiqotlar bilan isbotladi. Bu metod asta-sekinlik bilan oliy va o'rta ta'lim tizimiga kirib kela boshladi. Adabiyot, oila psixologiyasi, ma'naviyat va boshqa hamma fanlardan (yoki fanlar tarixidan) dars-dramalarni tashkil etish mumkin. Ammo, dars-dramaning asosiy maqsadi, o'quvchilar orasida hamjihatlik, jipslik, do'stlik his-tuyg'ularini shakllantirish, o'qituvchi-o'quvchi orasidagi munosabatlarni yaxshilash, o'quvchi (talabaning) shaxsiy hayoti, jamoadagi shaxslararo munosabat va muloqotda ijobiy psixologik muhitni tashkil etishga mo'ljallangandir.

5. Dars-munozara. Bunday darslarni tashkil etishdan oldin munozara mavzusi, yo'nalishi o'quvchilarga e'lon qilinadi. Shu sohada o'qish zarur bo'lgan ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan ishlash haqida maslahat beriladi. Dars jarayonida uyatchang, kamgap, sust o'quvchilarni doimo savollar berish, ularni fikrini so'rash bilan faollashtirilib turiladi.

6. Dars-sayohat: Dars-sayohat oldindan tuzilgan reja asosida o'tkaziladi va bu darsga katta tayyorgarlik ishlari talab qilinadi.

Bordi-yu o'qituvchi «O'zbekistonning-o'rmonlari» mavzusida sayohat tashkil qilmoqchi bo'lsa u oldin o'quvchilarga o'rmonlar haqida, ulardagi ekologik ahvol, daraxt va o'simliklarning turlari haqida tushunchalar beradi.

Sayohat jarayonida o'quvchilar bilan daraxt va o'simliklar turlarini, tabiat manzaralarini, rasmlarga, video tasmlarga ularning suratlari olinadi. Sayohatning natijasi to'plangan namunalar, olingan rasm va video suratlarni namoyish etish bilan tahlil qilinadi. Bu shaklda olib borilgan darslar o'quvchilarning xotiralarida uzoq muddat muhrlanib qoladi.

2.10. Ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash ilmiy metodik jixatdan ta'minlash, amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baxolashdan iborat bulgan yaxlit tizimda uz ifodasini topadi. Shu sababdan milliy ta'lim – tarbiya tizimini takomillashtirish uchun yangi tipdagi ukuv reja, ukuv dasturlari va ta'lim standartlari yaratildi, lekin uni tula amalga oshirish uchun ta'lim mazmuniga yangi pedagogik natijalar, texnologiyalarni olib kirish, ularni joriy etishning kulay shart–sharoitlarini yaratish lozim.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasini olimlarimiz turlicha ta'riflaydilar va sharxlaydilar.


Masalan: «Pedagogik texnologiya» – bu ukituvchi (tarbiyachi) ning ta'lim–tarbiya vositalari yordamida ukuvchi (talaba)larga muayan sharoitda ta'sir kursatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirsh jarayonidir. (N.Sayidaxmedov)

Yapon olimi T.Sakamota tomonidan pedagogik texnologiya – bu ukitishning makbulligini ta'minlovchi yul yuriklar tizimi bilan bog'lik bilimlar soxasi ekanligi e'tirof etiladi.

Tanikli rus pedagogi, olima N.F.Talizina texnologiyani «belgilangan ukuv maksadiga erishishning okilona usullarini aniklashdan iborat» deb tushuntiradi. I.Y.Larnerning fikricha, pedagogik texnologiya – «ukuvchilar xarakatlarida aks etgan ukitish natijalari orkali ishonchli, anglab olinadigan va aniklanadigan maksadni ifodalashni takozo etadi.».

Yukorida keltirilgan ta'riflardan kurinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilab olingan boshlang'ich maksad va mazmun asosida ukuv jarayonini loyixalash sifatida talkin etilyapti. Bu bir jixatdan tug'ri, lekin teranrok fikr yuritilsa, uning bir yoklamaligi yakkol kuzga tashlanadi, chunki bunday yondashuvlarda ukuvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bulib akademik V.P.Bespalko paykadi va uzining yirik asarida «pedagogik texnologiya – bu ukituvchi maxoratiga bog'lik bulmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan ukuvchi shaxsini shakllantirish loyixasidir», – deb ta'riflaydi. Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga karatilgan ta'riflar xilma–xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini kursatsa, ikkinchi tomondan pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bulgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi. Uzok yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir – biriga bog'lik bulmagan xolda urganib kelindi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning umumiy shakli



Olimlarimizning fikricha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika faning aloxida tarmog'i sifatida yoki fakat ta'lim amaliyotini makbullashtirishga yunaltilgan tizim deb karash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu pedagogika soxasidagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Pedagogik texnologiya bu ukituvchi pedagogik maxoratining yuksak chukkisi bulib, ta'lim-tarbiyani xar kanday murakkab vaziyatda xam anik kulaniladigan usul, vositalarning majmuidir.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maksadini yangi yunalishga burmokka, unda: «utmishdan kolgan mafkuraviy karashlar va sarkitdan tula xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beradigan yukori malakali kadrlar tayyorlash» deb belgilanadi. Demak, ta'lim – tarbiyaning maksadi butunlay yangilandi, unga mos xolda mazmunning xam, pedagogik jarayoning xam yangilanishi tabiydir.

Pedagogik texnologiya boshka soxalardagi texnologik tajribalar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy ukuv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir kursatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lim – tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bulsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab obyektiv vokealikka aylandi. Axborotlashtirish esa, bu jarayondagi inkilobiy burilishidir. Oddiy til bilan aytganda ta'limda «axborot texnologiyasi – bu ukuvchi – kompyuter» urtasidagi mulokotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy kismi, texnika vositalarining mukammallashtirish zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida kulanila boshlandi. Ta'limni texnologiyalashtirish obyektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy texnik tarakkiyot yunalishi bilan belgilanganishini etirof etgan xolda

pedagogik texnologiyaning uziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'lik bulgan vazifalar, olimlarning fikricha quyidagilardan iborat:

1)kup boskichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning moxiyatini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chikish;

2)zamonaviy sanoat, tibbiyot, iktisodiyot, ekologiya kabi soxa texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va tabakalashtirilgan yondashuv asosida ularni kullash mezonlarini aniklash;

3)Tegishli boshkaruv organlari (ta'lim markazlari) tomonidan ukuv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbik etilish darajasini nazorat kilish va baxolash;

4)Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat kursatayotgan proffesor – ukituvchilarni malaka oshirish va kayta tayyorlash kurslarida, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari kabi yangi yangi bilimlar tizimi bilan kurollantirishni muntazam tashkil etish;

5)oliy ukuv yurtlari talabalari, ayniksa mutaxassis – pedagog (iktisodchi – pedagog, xukukshunos – pedagog, muxandis – pedagog va boshka) lar uchun 20 soat xajmida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti buyicha maxsus kurs joriy etish;

6)respublikamizda faoliyat kursatayotgan ijodkor ukituvchilar ish tajribalarini muntazzam urganib taxlil etish, umumlashtirish va ular tomonidan yaratilgan metodik ishlanmalar, pedagogik texnologiya elementlarini yangi pedagogik texnologiya darajasiga kutarish borasidagi ilmiy-nazariy, amaliy ishlarni ruyobga chikarish lozim.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida, jumladan kasb-hunar ta'limida eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bulmaydi. Shuning uchun fikrimizcha, biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyani egallash eng avvalo tinimsiz mexnat, xar bir ukituvchining uz ustida ishlashni takozo kiladi. Bu ish dastlab ilg'or pedagogik tajribalarni urganishdan boshlanishi lozim. Ilg'or pedagogik tajribalarni urganish va yoyish ukituvchilar uchun uz kasb maxoratlarni takomillashtirishning eng kulay shaklidir. Ilg'or pedagogik tajriba ukituvchining uz pedagogik faoliyatiga ijodkor va novatorlarga yondashib, ukuvchilarga ta'lim va tarbiya berishning yangi yullarini izlab topishdir.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniklashda ma'lum mezonlarga asoslanishi kerak. Bunda eng muxim ukituvchi uz pedagogik faoliyatida kullaydigan ta'lim – tarbiyaning eng yaxshi shakl, metod va usulidir. Bu mezon ilg'or ukituvchini oddiy ukituvchilardan ajratadigan eng muxim belgidir.

Ilg'or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yukori natijaga erishish uchun zamin xozirlaydi. Bunda ukuvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi xisobga olinishi zarur. Bundan tashkari ilg'or pedagogik tajribaning kulayligi va tejamligini xisobga olish zarur, chunki yukori natijaga erishishda ukuvchilar va ukituvchilarning kuchini, vaktini tejash, ularni toliktirishdan asrash xam muximdir.

Pedagogik texnologiyani egallashdagi muxim boskich ukituvchilarimizning pedagogik maxoratining muxim tarkibiy kismi xisoblangan pedagogik texnikani egallashdir. Pedagogik texnika ukituvchiga ta'lim – tarbiya faoliyatida zarur bulgan umumiy pedagogik malakalar mazmunini uz ichiga oladi. Pedagogik texnikani

egallash ukituvchining eng yaxshi tarbiyaviy ta'sir kursata olishni ta'minlaydi. U ukituvchining kuchini vaktini tejab, ijodiy ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya pillapoyalari sari intilayotgan ukituvchi uchun keyingi boskich – pedagogik ijod kilishni bilishi xisoblanadi. Pedagogik ijod faoliyat sifatida yangilik yaratish bulib, uzining takrorlanmas ijtimoiy moxiyati bilan ajralib turadi.

Pedagogik ijodning uziga xosligi, takrorlanmasligi shundaki, uning maxsuli sifatida inson shaxsi shakllanadi.

Kasb-hunar kollejlarda pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida, ya'ni didaktik tizimga kuradigan bulsak, didaktik tizimda maksad muxim bulib, unga ergashish ma'lum sharoit va ukuvchi faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonidagi xato, kamchiliklar, mavxumlikni oldi olinadi va avvaldan ta'lim jarayonini loyixalashtirib va uni birin-ketin vokelikka aylantirish asosida uni takomillashtirish xisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlarda pedagogik texnologiya asosida dars o'tish pedagogik tizimni loyixalashtirish sifatida ta'lim jarayonning yaxlitligini, uning maksad, vazifasi amalga oshirish shakllarini, uslublarini xamda ukuvchilar faoliyatini boshkarish bilimini nazorati va tekshirishning uzviyligini ta'minlaydi. Shunday kilib pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida mazmunli amalga oshirish texnikasidir.

2.11. Masofadan o'qitish texnologiyasi

Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib keldi. Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, «Zamonvayi kompyuter» va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan «Internet» ga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida 2001 yil 24 may Vazirlar Mahkamasining qarori chiqqan edi. Dunyoda masofaviy ta'lim texnologiyasi hozirda rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimining asosini tashkil etadi. Bu tizim orqali talabalar faqat belgilangan joydagi auditoriyalarda ta'lim olmasdan, ma'lum masofadan turib o'rganish, muloqot o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu kabi o'quv tizimi Amerika, Hindiston ochiq universitetlarida keng yo'lga qo'yilgan.

Masofadan o'qitishning turli ko'rinishlari mavjud:

- lokal kompyuter tarmog'i orqali;
- global kompyuter tarmog'i orqali;
- maxsus kabel televideniyasi orqali;
- har xil kompakt disklar, kassetalar orqali foydalanish turlari.

Masofadan o'qitishning ustun tomonlari quyidagilardir:

- o'qituvchi va talaba vaqtdan yutadi, talabani zamonaviy texnologiyalarga yaqinlashtiradi;

- har tomonlama tejamkorlikka ega va albatta asosiysi o'qitishda, masofa tanlamaydi;

- talabalarning o'rganishi uchun qulay, oson va sodda hamda qayta o'zlashtirish, takrorlash, vaqtga moslash imkoniyati mavjud;

- keyinchalik ish joyida zamonaviy texnologiyalarda tadbiq etish uchun mos;

-o'quv materialini zamon talabiga binoan tez va doimiy o'zgartirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga kelajak uchun muammo bo'lmagan kamchiliklari ham mavjud;

- albatta foydalanishda zarur kompyuter va texnika qurollari mavjud bo'lishi;

- kerakli texnologiyalardan foydalanishda yetarli ko'nikmaga ega bo'lish;

- texnik ko'rsatkichlarga tobeligi.

Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlari quyidagilar: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiya. Masofadan o'qitishni naafaqat ta'lim sohasida, balki kundalik turmushimizning barcha sohalarida ham qo'llash mumkin va yaxshi natijalar beradi:

- bank va moliya sohasida – turli ma'lumot olish, almashish;

- huquqni muhofaza qilish organlarida – tezda ma'lumot almashish;

- savdo – sotiq sohalarida, bog'cha – yaslilarda qo'llash;

- transport tizimida foydalanish, harbiy sohalarida qo'llash;

- kutubxona tizimida foydalanish;

- dam olishda va boshqa sohalarida foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Hozirda masofadan o'qitishning bir necha modellari ishlab chiqilgan qo'llanmalarni ularda joylashtirish va ulardan foydalanishni tashkil qilish bo'lsa, ikkinchisi har xil elektron qo'llanmalarni tayyorlash va ularni SD lar orqali foydalanishni tashkil qilish hisoblanadi.

Elektron pochta (E-mail)

Elektron pochta yoki YE - mail Internetdan foydalanuvchilarning ko'p qismida mavjud bo'lib, Internetning asosini tashkil etadi. Butun dunyo bo'yicha elektron pochta va YE - maildan har kuni 20 million ki-shi foydalanadi. Internetdan foydalanish uchun beriladigan rux-satnomada elektron pochta manzili va parollari keltirilgan bo'ladi. Elektron pochta orqali matnlarni, fayllarni grafikani va multimediya fayllarni, boshqa bir foydalanuvchiga uzatish imkoniyati mavjud. Birinchi masofadan o'qitish tizimlari shu tizimga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, faqat ma'lu-motlarni uzatish yoki qabul qilish bilan chegaralangan. Ting-lovchi ma'ruza va topshiriqlarni qabul qilib olib, o'rganadi va topshiriqlar natijasini yana elektron pochta orqali o'qi-tuvchi manziliga jo'natadi. Bu holat butun kurs davomida bir necha bor takrorlanadi. Bugungi kunda to'liqligicha ye-mailga asoslangan kurslar mavjud emas. Lekin barcha masofadan o'qitish kurslarida qisman elektron pochta xizmatidan foydalaniladi. Elektron pochta xizmatidan asosan kursga ro'yxatga olish va maxsus kirish parollarini jo'natish uchun foydalanil-moqda. Elektron pochtaga turli kompyuterlardan kirish imko-niyati mavjud bo'lib, internetga kirish logini va paroli talab qilinadi.

3. IJTIMOIIY-IQTISODIY MASALALAR MAJMUASI

3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi

O'zbekiston o'zining tarixan qisqa muddatli, biroq amalga oshirilayotgan tub islohotlar va o'zgarishlar mazmun-mohiyati, ko'lami jihatidan beqiyos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti davrida olamshumul muvaffaqiyat va natijalarga erishmoqda. Bunday yutuqlar negizida, eng avvalo, mamlakatimiz rahbari tomonidan mustaqil taraqqiyotning “o'zbek modeli” to'g'ri tanlanganligi, uni amalga oshirish borasida olib borilgan samarali, qat'iy va izchil iqtisodiy siyosat va, eng muhimi, mehnatkash xalqimizni bunyodkorlik va yaratuvchanlik tomon harakatlantiruvchi yuksak milliy g'oya yo'lida jipslashtirish, ularning ertangi kunga bo'lgan mustahkam ishonch va intilishlari shakllantirilishi yotadi.

Mustaqil taraqqiyot davrida mamlakatimiz iqtisodiyotini zamon talablari asosida tarkibiy o'zgartirish, iqtisodiy munosabat va jarayonlarni erkinlashtirish, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash orqali yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, aholi bandligi va farovonligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2011 yil Prezidentimiz tomonidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e'lon qilinib, yil davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifa va chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu chora-tadbirlarning o'ziga xos ahamiyati haqida to'xtalib, mamlakatimiz rahbari “Alohida katta e'tiborni talab etadigan yana bir masala shuki, hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda. Lekin, shu bilan birga, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovasion va innotexnologiyalar, farmakologiya va farmasevtika, axborot-kommunikasiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berishimiz zaurur”, deb ta'kidladilar. Bu esa zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, talabga javob beruvchi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, innovasion loyiha va ishlanmalarni amalga oshiruvchi, kichik biznes sub'ektlarini ustuvor darajada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mustaqillik yillaridagi rivojlanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, eng avvalo, bugungi kunga qadar kichik biznes tarkibiga kiruvchi korxonalarining chegaralarini aniqlash o'ziga xos tadrijiy rivojlanish bosqichlari orqali amalga oshirilib kelinayotganligini ta'kidlash lozim. Har bir muayyan bosqichda belgilangan miqdoriy chegaralar Prezidentimiz farmonlari hamda hukumatimiz qarorlariga asoslanadi. Bularning barchasi mazkur soha rivojining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi yuksak ahamiyatidan darak beradi (3.1-jadval).

3.1-jadvaldan ko'rinadiki, mustaqillikni ilk davridanoq mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatini davlat

tomonidan samarali tartibga solish maqsadida alohida soha sifatida belgilab olishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Iqtisodiyot rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay muhit yaratilishi natijasida kichik biznes sub'ektlari sifat va miqdoriy jihatdan taraqqiy etgan sari ularning miqdoriy chegaralari ham takomillashtirib borilmoqda. Ushbu jarayonlarni, ulardagi miqdoriy o'zgarishlarni yaqqolroq ifodalash maqsadida alohida jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiqdir (3.2-jadval).

3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari turli chegaralarining amal qilish bosqichlari

Bosqich	Yillar	Tegishli me'yoriy hujjat
I	1992-1995	“O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-sonli qaroriga 2-ilova)
II	1995-1998	O'zbekiston Respublikasining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi qonuni (1995 yil 21 dekabr)
III	1995-2003	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni (1998 yil 9 aprel)
IV	2003 йилдан hozirga kadar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi farmoni (2003 yil 30 avgust); O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori (2003 yil 11 oktyabr)

Mustaqillik davrida malakatimizda kichik biznes faoliyatiga oid dastlabki me'yoriy hujjat – “O'zbekiston Respublikasidagi kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom” (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-sonli qaroriga 2-ilova) qabul qilinib, unda kichik korxonalarning miqdoriy chegaralari belgilab berildi. O'sha davrda respublikamizda hali o'rta va yirik korxonalar ko'lamlari miqdoriy chegaralari mavjud emasligi kichik biznes sohasi asosan kichik korxonalar faoliyati orqali belgilanishiga olib keldi.

O'zbekistonda 1992-2003 yillarda kichik va o'rta biznes korxonalari miqdoriy chegaralarining belgilanishi

Tarmoq yo'nalishi	1992 yil 26 fevraldagi ilovaga binoan	1995 yil 21 dekabrda qonunga binoan	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi farmoniga binoan		
			Mikrofirma	Kichik korxona	O'rta korxona
Sanoat	200	50		40 kishigacha	40-100 kishi
Qurilish	kishigacha	kishigacha			20-50 kishi
Qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishni boshqarish sohasining boshqa tarmoqlari	50 kishigacha	25 kishigacha	10 kishigacha	20 kishigacha	20-30 kishigacha
Ulgurji savdo					
Chakana savdo	15 kishigacha	5 kishigacha			
Fan va ilmiy xizmat ko'rsatish	100 kishigacha	10 kishigacha	5 kishigacha	10 kishigacha	10-20 kishigacha
Noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlari	25 kishigacha	10 kishigacha			

3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mustaqil taraqqiyotning ilk davrida kichik korxonalarning miqdoriy chegaralari nisbatan kenroq, ya'ni sanoat va qurilishda – 200 kishigacha, fan sohasida va ilmiy xizmat ko'rsatishda – 100 kishigacha, ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida – 50 kishigacha, noishlab chiqarish soha tarmoqlarida – 25 kishigacha, chakana savdoda – 15 kishigacha ishlovchidan iborat bo'lgan. Bu esa, asosan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki pallasida hali yirik davlat korxonalari salmog'i yuqori bo'lib, davlat tomonidan mazkur korxonalar bilan teng iqtisodiy sharoitlarni ta'minlash, turli usul va vositalar orqali qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ko'pligi orqali izohlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini shakllantirish, raqobatni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'paytirish orqali iste'mol bozorini to'ldirish maqsadlarida kichik korxonalar faol rivojlanishi uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan bu me'yoriy hujjat

haqiqatdan ham mazkur jarayonga berilgan dastlabki turtki bo'ldi. Buning natijasida mamlakatimizdagi kichik korxonalar jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi.

1992-1995 yillar davomida kichik korxonalar soni 13,1 mingtadan 43,2 mingtagacha, ya'ni 3,3 baravar o'sgan. Kichik korxonalarda ishlovchilar soni esa 184,5 ming kishidan 422,8 ming kishiga qadar, ya'ni 2,3 baravar ko'paygan. Bu davr oralig'ida faoliyat ko'rsatib kelgan kooperativchilik harakati sekin-asta tugab, kichik korxonalarda aylanishi ta'sirida bitta kichik korxonaga to'g'ri keluvchi ishlovchilarning o'rtacha soni ham qisqarib bordi.

Yuqorida ta'kidlangandek, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishi takomillashib borishiga zamin yaratib, tegishli ravishda, kichik biznes sohasini belgilashni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Jumladan, amalga oshirilgan kichik xususiy lashtirish natijasida savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, mahalliy, engil, oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalaridagi deyarli 54 mingta kichik va o'rta korxonalar xususiy mulkka o'tkazildi. 1994 yilda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish dasturida belgilangan 5127 ta ob'ektni xususiy lashtirish bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda 4617 ta korxonaning mulkchilik shakllari o'zgartirildi. Ushbu jarayonlar respublikamiz iqtisodiyotidagi yirik davlat korxonalari, ayniqsa, monopoliya mavqega ega xo'jalik sub'ektlari salmog'i keskin qisqarishiga va, ayni paytda, yirik korxonalar va kichik biznes sub'ektlari o'rtasidagi nisbat o'zgarishiga olib keldi. Shu bilan birga, kichik biznes sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirish, qo'llab-quvvatlashning manzilli yo'naltirilganligini kuchaytirish zarurati mazkur soha miqdoriy chegaralarini qayta ko'rib chiqishni taqozo eta boshladi. Shunga ko'ra, 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonunda kichik korxonalarning yangi miqdoriy chegaralari belgilab berildi. 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, qonunga binoan kichik korxonalarning miqdoriy chegarasi (xodimlar soni) tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridagi 2 baravardan fan va ilmiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida 10 baravargacha qisqargan. Bu esa, o'z navbatida, boshqa ko'lamdagi tadbirkorlik shakllari (yirik va o'rta korxonalar)ning chegarasida o'zgarishlar ro'y berishiga olib keldi.

Shuningdek, bu qonunda kichik biznesni davlat tomonidan rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari ham belgilab berildi:

- kichik tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;
- infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish;
- kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu yo'nalishlardagi chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishi yanada jadallashdi.

Xususan, bu davrda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar soni 9,4 mng birlikka (122,2%) ko'paydi. 1998 yil o'rtalaridan boshlab kichik korxonalar miqdoriy chegaralari qisqarishi natijasida ishlovchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soni va, tegishli ravishda, bitta korxonaga to'g'ri keluvchi xodimlar o'rtacha soni kamaydi.

O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlari chegaralarini aniqlash navbatdagi bosqichining asosiy xususiyati shundaki, unda kichik va o'rta biznes sub'ektlari tarkibidagi bir qator tadbirkorlik tuzilmalari ajratib olindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan kichik va o'rta tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar va o'rta korxonalar tarkib topishi belgilab berildi.

Bu jarayonda yana bir xususiyatli jihat ya'ni, kichik biznes sub'ektining ishlovchilar soniga ko'ra o'lchamlari asosan qisqarish tomonga borishi yaqqol namoyon bo'ldi. Masalan, kichik korxonalardagi xodimlarning o'rtacha yillik soni qurilishda 2,5, sanoat, ulgurji savdo, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida 1,25 baravar qisqarib, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, noishlab chiqarish sohalarining boshqa tarmoqlari chegarasi o'zgarmay qoldi. Aksincha, chakana savdo yo'nalishidagi kichik korxonalarda xodimlar soni 2 baravar o'sdi.

Farmon, shuningdek, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, mazkur sohaga kredit resurslari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni ochib berdi. Belgilangan va izchil ravishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda kichik biznes jadal sur'atlarda rivojlandi.

Kichik va o'rta biznes sub'ektlari miqdoriy chegaralari yanada takomillashtirilishi hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar kuchaytirilishi natijasida ushbu davrda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni 1,8 baravar, ularda band bo'lganlar soni 1,6 baravar o'sdi. Bu esa mazkur sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1999 yildagi 29,1 foizdan 2003 yilda 35,5 foizga etishiga imkon yaratdi.

Kichik tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, ishlab chiqarish sohasida aholi bandligini to'laroq ta'minlash uchun qulay sharoit yaratish maqsadida 2003 yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari chegaralarini aniqlash borasida navbatdagi bosqichni boshlab berdi. Unga mazkur bosqichning xususiyatli tomoni – mikrofirma va kichik korxonalarda band bo'lgan xodimlar o'rtacha yillik soni tarmoqlar bo'yicha yanada aniq belgilab berildi.

Qisqasi, mazkur farmon mikrofirma va kichik korxonalar miqdoriy chegaralari sezilarli ravishda kengayishiga olib keldi (4-jadval). Jumladan, farmon qabul qilingunga qadar amal qilib kelgan miqdoriy chegaralarga nisbatan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridagi mikrofirmalarda 2 baravar oshgan;

ulgurji savdo, chakana savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi mikrofirmalarda o'zgarmay qolgan;

engil va oziq-ovqat, metallga ishlov berish va asbobsozlik yog'ochini qayta ishlash mebel, qurilish materiallari sanoati, sanoat ishlab chiqarishning boshqa

sohalarida, shuningdek, qishloq xo'jaligi, qurilish, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, transport va aloqa xizmat ko'rsatish sohalari, chakana savdo tarmoqlaridagi kichik korxonalarda 2.5 baravar;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-enegetika, kimyo sanoati va ulgurji savdo tarmoqlaridagi kichik korxonalarda 1,25 baravar oshgan.

Kichik korxonalar miqdoriy chegaralarining amal qilib kelgan o'rta korxonalar miqdoriy chegarasiga qadar kengayishi mamlakatimizda "O'rta biznes" tushunchasining ilmiy muomaladan chiqarilishiga olib keladi.

3.2. Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili

2004 yil 1 yanvarda kichik biznes su'ektlari miqdoriy chegaralarining davlat tomonidan oqilona va samarali belgilanishi mazkur soha biznes – muhiti yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, asosiy faoliyat ko'rsatkichlari yanada salmoqli bo'lishini ta'minladi.

Mamlakatimizda kichik biznesning miqdoriy chegaralari mazkur sohani jadal rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat va rag'batlar yaratish nuqtai nazardan muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bunda tadbirkorlarining iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ularning faoliyatini yanada kengaytirishga yo'naltirilgan mexanizmlarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda

3.3- jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik va yakka tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi (foizda)

T\R	Ko'rsatkichlar	2007	2008	2009	2010	2011	2012
1	Tadbirkorlik sub'ektlari ulushi	39,5	47,5	50	52.6	55.0	56,2
3	Kichik tadbirkorlik va mkirofirmalar ¹	24,2	28,9	29	33.4	34.2	35,6
4	Yakka tadbirkorlik sub'ektlari	7,1	9,5	10.9	8.1	10.2	10,3
5	Dehqon xo'jaliklari	8,2	9,3	10.1	11.1	10.6	11,3

Ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlar orlig'ida etarli darajada farqlar bo'lib, ular mahsulot sifati bilan bevosita bog'liq.

Shu boisdan ham O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng tadbirkorlik ham rivojlanib bormoqda. Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik sub'ektlari soni 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 44 foizga kamaygan bo'lsada, kichik tadbirkorlikda band bulgan kishilar soni xamda yangi yaratilayotgan ish o'rinlari oshib bormoqda. Shuningdek, yalpi xududiy maxsulotdagi ulushi 52 foizdan 56,2 foizga oshgan. Xamda soxalar buyicha tadbirkorlik sub'ektlari ulushi ortib bormoda.

Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2010 yil	2011 yil	2012 yil	O'sish sur'ati, %
1	Kichik korxonalari soni	birlik	78552	39942	44469	56,6
2	Faoliyat kursatayotgan kichik korxonalar soni	birlik	73189	38706	43271	59,1
3	Yangi tashkil etilayotgan kichik biznes sub'ektlari xisobiga yaratilgan ish urinlari	ish urni	24014	25456	26458	110,2
4	Kichik korxonalarning ulushi:					
	Yalpi maxsulotda	%	52,0	55	56,2	x
	shu jumladan, dexkon xujaliklarisiz	%	18,9	18,7	18,9	x
	Iktisodiyotda bandlikda	%	73,5	74,8	75,1	x
	Sanoat maxsuloti ishlab chikarishda	%	19,2	19,0	19,2	x
	Kishlok xujaligi maxsuloti ishlab chikarishda	%	99,8	99,7	99,8	x
	Kurilish ishlari xajmida	%	56,9	56,6	57,9	x
	Chakana savdo aylanmasida	%	42,4	43,2	44,4	x
	Eksportda	%	38,3	38,5	38,4	x

Qashqadaryo viloyatida barcha turdagi korxonlar tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik maxsulotlari 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 46,8 foizga o'sgan. Shundan, 2011 yilda fermer xo'jaliklarining ulushi 36.4 foizni tashkil qilib, 2009 yilga nisbatan 30.3 foizga o'sgan. Dehqon xo'jaliklarining ulushi 63.4 foizni tashkil qilib, 2009 yilga nisbatan 59,0 foizga oshgan. Boshqa turdagi korxonalar ulushi kayib bomoqda. Ushbu ma'lumotlar qishloq xo'jaligida dehqon va fermer xo'jaliklarining tarmoq yalpi mahsulotida ulushining o'sib borayotganligini ko'rsatadi

Bunga sabab qishloq xo'jaligi shirkat xo'jaliklarining tugatilishi asosida ko'plab fermer va huquqiy shaxs maqomidagi dehqon xo'jaliklarining tashkil etilishidir. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi rolining ortib borayotganligiga qaramasdan ularning ulushi ancha pastdir. Bunga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarning qishloq joylarda tashkil etilishi jarayonlarining ancha sust amalga oshirilayotganligi sabab bo'lmokda.

Kashkadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan 2011 yilda engil sanoatda 0,8 %, paxta tozalash sanoatida 11 %, ozik-ovkat sanoatida 6,1 %, un-yorma kombikorma sanoatida 2,5 % kishlok xujalik maxsulotlari qayta sanoat asosida ishlanmokda.

**Qashqadaryo viloyatida mulkchilik shakllari bo'yicha qishloq xo'jalik
maxsulotlari ishlab chiqarish xajmi.**

Yillar	Barcha turdagi korxonalarda	Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi					
		Fermer xo'jaligida	Yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti Fermer xo'jaligining ulushi, %	Dehqon xo'jaligida	Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida dehqon xo'jaligining ulushi, %	Boshqa turdagi korxonalarda	Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida boshqa turdagi korxonalar ning ulushi, %
2010	1081338,3	443348,695	41	632979,8	58,5	4325,4	0,4
2011	1485124	562861,996	37,9	917806,63	61,8	4455,4	0,3
2012	1587225	577749,936	36,4	1006300,7	63,4	3174,5	0,2
2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarish,, % 146,8	146,8	130,3	0,9	159,0	1,1	73,4	0,5

Qayta ishlash sanoatida kichik tadbirkorlikning ulushi


Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha	2010	2011	2012 й	2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarish, %
SANOAT	100	100	100	-
YEngil sanoat (paxta tozalash sanoatidan tashkari)	0,8	0,8	0,8	100,0
Paxta tozalash sanoati	11,5	11,2	11	95,7
Ozik-ovkat sanoati	4,5	6	6,1	135,6
Un-yorma va kombikorma sanoati	2,2	2,2	2,5	113,6

Tahlillar shuni ko'rsatmokdaki, eksport va importda o'rta korxonalarning ulushi kamayib, kichik korxona va mikrofirmalarning ulushlari o'sib bormokda Ammo yuqoridagi sabablarga ko'ra ularning tashqi savdo faoliyati ancha sustdir. 2009 yilda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining atigi 14%, ya'ni 3,3 mingtasigina tashqi savdo bilan shug'ullanmoqda□

Konditer mahsulotlarining narxlar oralig'i uchun narxlar qatori elementlarini yanada ko'paytirish mumkin. Buning uchun pastki chegaradagi narxlarni 20-25 foizga, yuqori narx chegarasini esa 10-15 foizga kamaytirish kerak. Shuningdek, poliz

ekinlari, don mahsulotlariga narxlar qatori elementlarini ko'paytirgan holda mahsulot sifati bo'yicha talab qondirilishiga erishiladi.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida shu narsa qayd qilindiki, ayrim mahsulot turlari bo'yicha tayanch narx nuqtalari bilan talab egriligi ko'rilganda narx darajasi har doim ham xaridorlarning hammasi uchun maqbul bo'lmas ekan va uning natijasini 5-rasmdan bilsa bo'ladi.



3.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari mahsulotlariga tayanch narx nuqtalari bilan talab egriligi

Rasmdan ko'rinib turibdiki talab egriligi chizig'ida aholining daromadiga qarab katta o'zgarishlar mavjud. Har bir tayanch narxi bo'yicha barcha so'ralganlardan olingan javob turlicha bo'lib, masalan 500 sumdan quruq mevalar iste'mol qilishi mumkin bo'lganlarning hammasidan 94,0 foizi narxni biz uchun maqbul deb topishdi. 2400 so'mdan qilib tayanch narxi belgilanganda so'ralganlardin 11,2 foizigina bu narx-navo biz uchun ma'quldir deb javob berishgan.

Nafaqat yil, kvartal, oy davomida, balki bir kunda bir-necha marta o'zgarishi va ayrim hollarda o'zining tannarxini oqlamasligi ham mumkin. Bu odatda tez buzuluvchan, sifatini tez yo'qotadigan tovarlarga nisbatan sodir bo'ladi. Bozorda narx-navoni o'zgarib borishi, hozirgi iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish jarayonida doim mavjud bo'ladi va u har doim o'sish mayliga ega. Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichk biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish sifatini raqobatbardoshlik talablaridan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yilishi savdo jarayonida shakllanadigan narx-navoga ham bog'liq bo'lib, undan o'zgarishlar erkin iqtisodiyot sharoitida raqobatchilik muhitini jonlanishiga olib keldi.

1995 yildan boshlab, iste'mol mahsulotlariga narx-navoni ko'tarilib borishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, o'tish iqtisodiyotida sodir bo'ladigan inflyasiya jarayonlarini ob'ektiv mavjudligidir. Shuni hisobga olib, O'zbekistonda keyingi yillarda bir-necha marta aholini ish xaq-lari oshirildi va ularning pul daromadlarida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Lekin shunga qaramasdan, qishloq aholisining ma'lum bir qismi, xususan, shahar aholisi ham o'zlarining moddiy

ehtiyojlarini asosan savdo shaxobchalari orqali qondirish uchun harakat qilishi narx-navoni yuqori bo'lishini taqozo etmoqda.

3.5-jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikka ajratilgan kredit mablag'lari

Yillar	Jami ajratilgan kreditlar	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Savdo	Qurilish va maishiy xizmat ko'rsatish	Boshqa tarmoqlar	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli
2012	114699	31314	38999	19128	19154	5504	38883	75816
2011	75800	20400	25500	15300	7900	3300	26200	49600
2010	43900	10600	16800	8900	4652	2900	15500	28400
O'zgarish, %	261,3	295,4	232,1	214,9	411,7	189,8	250,9	267,0

2010-2012 yillarda hosildorligi past erlarda paxta etishtirayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan mablag' ajratish yo'lga qo'yildi. Meliorativ holati og'ir erlarda paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2010 yilda 10.6 mlrd. so'm, 2010 yilda esa 38.9 mlrd. so'mlik moliyaviy ko'mak uchun mablag' ajratilgan. Ushbu mablag'lar fermer xo'jaliklarining xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi korxona hamda tashkilotlar oldidagi kreditorlik qarzlarini qisqartirishga salmog'li manba bo'ldi.

3.7- jadval

Qashqadaryo viloyatida agrofimlar faoliyati

Tumanlar	Qayta ishlash sexlari mavjud agrofimlar soni	Fermer xo'jaliklari bilan maxsulot sotib olishga tuzilgan shartnomalar			Yetkazilgan maxsulot uchun ajratilgan avans, mln.so'm		Fermerlardan sotib olingan maxsulot		Agrofimlar tomonidan eksport qilingan maxsulot	
		soni	miqdori	so'mmasi	Reja	haqiqatda	miqdori, tonna	so'mmasi, mln.so'm	miqdori, tonna	so'mmasi, mln.so'm
Qarshi tumani	1	115	2440	173	40,2	44,5	2540	260		
Kitob tumani	6	654	30012	5628	267,1	253	30230	3742	2600	83,7
Nishon tumani	1	50	1330	93	27,9	24,3	1400	140		
Chiroqchi tumani	1	28	780	94	4,6	5	790	964		
Yakkabog' tumani	1	135	1230	160	31,5	29,1	1240	151		
Kasbi tumani	1	95	975	116	13,8	12,9	980	80		
Shahrisabz tumani	1	120	2590	309,2	3,7	4	3010	301	1100	47,9
Jami	12	1197	39357	6573,2	388,8	372,8	40190	5638	3700	131,6

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari uchun narx-navolar hozirgi o'tish davri uchun xos bo'lgan xususiyatni hisobga olgan holda, barcha tovarlar uchun taalluqligi qayd qilingan. Narx-navoni o'sishiga

mamlakatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ham ta'sir ko'rsatib, narx-navo darajasini yuqori bo'lishi sodir bo'rmoqda.

Birinchidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini mintaqaviy iqtisodiyotda ham keng qamrab olish jarayonlari Qashqadaryo viloyatida ham faol amalga oshirilib, bu jarayon kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mahsulotlar raqobatbardoshligida o'zining vazifasini topmoqda.

Ikkinchidan, Qashqadaryo viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari raqobatbardoshligi mintaqada o'z mavqeini yanada mustaxkamlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda sub'ektlar faolligi sezilarli darajada amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari raqobatbardoshligida narx-navoni shakllanishi va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilib, viloyatda raqobat muhiti uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish lozim.

To'rtinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mahsulotlarni ishlash chiqarishda sifat darajasiga e'tibor berish va u raqobatning eng muhim mezon sifatida yuzaga chiqadi.

3.3 Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy o'zaro bog'lanishi, ya'ni integrasiyalashuvi natijasida mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Bu hol agrosanoat majmuasi ixtiyoridagi barcha resurslardan, shu jumladan, cheklanganlaridan ham samarali foydalanilishini ta'minlashga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtirishga, avtomatlashtirishga, elektrlashtirishga, kompyuterlashtirishga hamda tarmoqlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Ular talab darajasida amalga oshirilishi natijasida xaridorgir, raqobatbardosh oziq-ovqat hamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ular iste'molchilarga sifatli va qulay usullar bilan etkazib borilishi natijasida aholining shu mahsulotlar bilan ta'minlanishi darajasi ortib, majmua tarkibidagi tarmoqlarning foydalari ko'payadi. Natijada agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi yuksaladi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorlik darajasini qator ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin.

Jumladan, agrosanoat majmuasining yalpi mahsuloti. U majmua tarkibidagi tarmoqlar korxonalari bir yil mobaynida ishlab chiqargan tayyor mahsulot va ko'rsatgan xizmatlar miqdoridan tashkil topadi. Yalpi mahsulotning miqdori har bir tarmoq bo'yicha absolyut, ya'ni natural ko'rsatkichlar yordamida hisoblanadi (tonna, dona, banka, litr, shisha idishda, tonna.km, et.gektar.). Bu ko'rsatkich yordamida agrosanoat majmuasidagi tarmoqlar yalpi mahsulotining miqdori alohida- alohida aniqlanib, avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslanib, tarmoqlarning qanday holatdaligi aniqlanadi. Masalan, qishloq xo'jalik mashinasozligi korxonalari 1997 yilda 2852 dona traktor, 1049 dona paxta terish mashinalari ishlab chiqargan bo'lsa, 2009 yilda tegishli 954 donadan ishlab chiqargan. Bu raqamlar shu muddatda tarmoq mahsulotlarining kamayib borayotganligini isbotlaydi. Shu yillarda qishloq

xo'jaligida g'alla etishtirish 2,1 mln. tonnadan 5,2 mln. tonnaga etgani uning hajmi 2,5 martaga oshganligini ko'rsatadi. Natijada non va non mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi. Paxta xomashyosi etishtirish hajmi 1991-2007 yillarda 4,1 mln. tonnadan 3,5 mln. tonnaga tushgan, ya'ni 20 foizga kamaygan. Shuning natijasida paxta tolasining miqdori ham 1,2 mln.tonnadan 1,05 mln. tonnaga tushgan yoki 12,5 foizga kamaygan. Bunday hol o'simlik yog'i, sovun ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelgan. Shu yillarda spirtli ichimliklar ishlab chiqarish nisbatan oshgan.

Lekin bu natural ko'rsatkichlar agrosanoat majmuasining umumiy holatini ifodalay olmaydi. Buning uchun agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining qiymatini aniqlash lozim. Yalpi mahsulot qiymati majmua tarkibidagi barcha korxonalar bir yilda ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarning, ko'rsatgan xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidan iborat. Ayrim korxonalarda ishlab chiqarilgan ba'zi mahsulotlarning ma'lum bir qismidan korxona ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun foydalaniladi, ma'lum miqdordagisi esa shu yilning o'zida sotilmay qoladi.

Yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda mahsulotlarning bir necha marta hisobga olinishini bartaraf etish maqsadida, agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat summasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki qo'shilgan qiymat – bu, korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati (amortizasiya summasidan tashqari) chiqarib tashlanganidan so'ng qolgan qismining bozor baholaridagi qiymatidir. Majmua yalpi mahsulotining haqiqiy baholardagi qiymatini respublika yalpi milliy mahsuloti tarkibidagi salmog'ini aniqlab, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va o'zgarishini ham aniqlash mumkin. Agarda agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining respublika yalpi milliy mahsulotidagi salmog'i o'sayotgan bo'lsa, yalpi milliy mahsulot oshgan holda majmuaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni yuksalayotganligidan dalolat beradi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining haqiqiy baholarda hisoblangan qiymatidan shu yildagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni, jumladan, ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimini aniqlashda foydalanish mumkin. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining qator yillardagi o'zgarishini aniqlash uchun uning yalpi mahsuloti qiymatini o'zgarimas, ya'ni qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda qiyosiy baho sifatida 1996 yildagi o'rtacha baholar olinmoqda. Shu tartibda yalpi mahsulotning qiymati aniqlanib, uni avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslash orqali agrosanoat majmuasi yalpi mahsuloti qiymatining o'zgarishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, yalpi mahsulot qiymatiga va boshqa ko'rsatkichlar darajasiga baholar o'sishining ta'siri bartaraf etiladi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining 1996 yil baholaridagi qiymati majmuaning real yalpi mahsuloti ekanligidan dalolat beradi. Shu real yalpi mahsulot qiymati ko'rsatkichidan foydalangan holda agrosanoat majmuasida qator yillardagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, sig'imi kabi ko'rsatkichlar darajasini aniqlab, ularning o'zgarishini ham bilib olish, bu ko'rsatkichlarni majmua tarkibidagi tarmoqlar miqyosida aniqlab, ularning o'zgarishini tahlil qilish mumkin.

Agrosanoat majmuasining tarmoqlari bo'yicha mamlakat eksportidagi, ya'ni valyuta tushumidagi salohiyati, ya'ni ulushi. Uni bilish uchun agrosanoat majmuasi tarmoqlaridagi korxonalarining eksport qilgan mahsulotlariga, xizmatlariga olingan valyuta shaklidagi haq tushumlarining bir yillik yig'indisini aniqlash zarur. Uni yagona valyuta birligida ko'rsatish uchun AQSh dollariga davlat kursiga binoan aniqlash lozim, kelajakda o'z mavqesini oshirib borayotgan evroda ham hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Demak, mamlakat eksport salohiyatini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'yicha qishloq xo'jaligi bilan «O'zpxastasanoat» uyushmasining salmog'i katta. Bu yaxshi, lekin kelajakda paxta tolasini chetga sotishning maqsadga muvofiq miqdorini saqlagan holda uni qayta ishlab, iste'mol uchun tayyor hisoblangan xalq iste'moli tovarlari eksportga chiqarilishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga qishloq xo'jaligida sabzavot, poliz hamda bog'dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirib, olingan sifatli, ekologik jihatdan toza hisoblangan tayyor mahsulotlarni ham chet ellarga sotishni rivojlantirishga alohida e'tibor berish vaqti keldi.

Bu muammoni hal etish jarayonida respublikada qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi, yangi ish joylarining tashkil etilishi, savdo sohalarining taraqqiyoti ta'minlanadi. Natijada nafaqat iqtisodiy, balki aholini ish bilan ta'minlashdek ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammo ham ma'lum darajada hal etiladi.

Aholining oziq - ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanganlik darajasi. Bu ko'rsatkichning mutlaq darajasini aniqlash uchun agrosanoat majmuasida ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotilgan mahsulotlar (turlari bo'yicha) miqdorini respublika aholisining umumiy soniga taqsimlash lozim. Shunda jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori aniqlanadi. Agarda uning miqdori yil sayin ortib, tibbiyot me'yorlariga yaqinlashsa, u holda bu aholining yashash sharoiti yuksalayotganligidan, xalqning farovon hayot kechirishi ta'minlanayotganidan dalolatdir.

Agrosanoat majmuasi, tarmoqlari va korxonalarida foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan xarajatlarning samaradorligi. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun agrosanoat majmuasining yalpi mahsulotini, milliy mahsulotini hamda sof foyda summasini ishlab chiqarish fondlariga, xarajatlar summasiga taqsimlash zarur. Shunda 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlari, xarajatlari evaziga olingan yalpi mahsulot, milliy mahsulot hamda sof foyda summasi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkichlarning mutlaq (absolyut) miqdori oshib borsa, u holda bu fondlarning, xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi oshayotganligidan dalolat beradi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, korxonalarining rentabellik darajasi. Uni aniqlash uchun tarmoqlarning, korxonalarining sof foydasini jami xarajatlar summasiga taqsimlab, natijani 100 ga ko'paytirish lozim. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligini aniqlashda bir qancha qo'shimcha ko'rsatkichlardan, jumladan, tarmoqlar bo'yicha bir kishining o'rtacha oyligi, kadrlarning bilimlilik salmog'i, aholi jon boshiga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdori va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Eslatib o'tish kerakki, respublikada go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tish bosqichining dastlabki yillarida anchaga qisqargan edi. Lekin 1999 yildan boshlab bu sohada ham o'zgarishlar bo'lmoqda. Umuman olganda, agrosanoat majmuasining faoliyati asta - sekin rivojlanib bormoqda. Natijada ayrim sohalarining iqtisodiy samaradorligi yuksalmoqda.

3.4. Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish

Rakobat kurashi sharoitida xar bir tovar va uning ortida turgan tovar ishlab chikaruvchi iste'molchining nazariga tushishiga harakat qilishga majbur bo'ladi. Xaridorning ayrim bir extiyohlari teng yoki kisman uzgaradigan sharoitlarda bir xil yoki xar xil usullar bilan kondirishga muljallangan xilma-xil tovarlar ayni bir paytda taklif etiladi. Bunday sharoitda iste'molchi uzining kiymat birligi buyicha rakobatchilar tovarlariga karaganda extiyojni kuprok va yukori darajada kondiradigan tovarni tanlaydi. Mabodo tovar sotilmagan bulsa va xaridor boshka kompaniya maxsulotini tanlagan va mazkur tovarni rad etgan bulsa, unda bu kompaniyani past xarajatlar xam, yuksak mexnat unumdorligi xam joniga ora kirmaydi. Kasodga uchrash xavfi anik xakikatga aylanadi.

Bozorda juda kup ishlab chikaruvchilar xamda iste'molchilar faoliyat olib borganda yangi rakiblarning paydo bulishi uchun zamin yaratiladi va buning natijasida narxlar talab va taklif ta'sirida erkin uzgarib turadi. Bunday sharoitda rakiblarning birontasi xam narxlarga yoki boshka usullar bilan bozrdagi xolatda ta'sir kursatish uchun etarli darajada kudratga ega bulmaydi. Amaliyotda ishlab chikarish va sotishning katta kismini nazorat kiladigan bir necha yirik firmalarning rakobati kup uchraydi. Ularning xar biri bozor siyosatini mustakil yuritadi, ammo ayni paytda ularning barchasi uzaro bir-biriga boglanib ketgan va rakiblar strategiyasi bilan xisoblashishga majbur. Masalan, AKShda 200ta eng yirik korporasiyalar mamlakat sanoat ishlab chikarishning yarmiga yakinini nazorat kiladi. Yaponiyada turtta eng yirik firmaning 96 sanoat kichik tarmoklarida solishtirma xissasi 60 % ni, 67 kichik tarmokda 70 % ni, 46 kichik tarmokda - 80 % ni tashkil etadi. Angliyada ikki kompaniya jami EXMlarning 3/4 kismini, Italiyada bir kompaniya avtomobillarning 90 % ini, yana boshka biri chuyanning 94 % ini ishlab chikaradi.

Yirik kompaniyalarning uz kapitalini jadal jamgarishi bunday tuplanishning usishiga yordam beradi. Yiriklashuvning dastlabki boskichlarida rakobat, rakobat bilan birga mayda firmalar, korxonalarining uzaro singib va kushilib ketishi aksariyat tarmok ichida ruy berib kelgan. Shunga kura xam rakobat tarmok ichida, ya'ni bir xil tovarlarni ishlab chikuvchilar ishlab chikarish va maxsulotni sotishning eng kulay sharoitlari uchun, shu tovar bozorining katta xissasi uchun uzaro kurashib kelganlar. Fakat uzluksiz takomil, ishlab chikarishni rivojlantirish bilan kulga kiritiladigan ustama foyda olish uchun bir tarmokdagi korxonalararo rakobat ilmiy-texnika progressiga ergashib borish bilan cheklanmay, uziga xos "moda yurikchisi" tarzida xamisha oldinda bulish intiladi. Xuddi shu ikki tarmok rakobati tufayli bozor iktisodiyoti xukmron bulgan kupgina mamlakatlar uz rakiblarini moxiyat-e'tibori

bilan olganda sanoat inkilobi davridayok ortda koldirib ketdi. Shuning uchun ham bozorda ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarning raqobatbardosh mahsulotlarni sotish va xarid qilish bilan bog'liq xarakatlar turli omillar, tadbirlar asosida belgilanadi.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida rivojlangan xorij mamlakatlarida firmalararo rakobatning narxsiz omillaridan ilmtalab maxsulotlarni ishlab chikarishga katta e'tibor berish, kapital mablag'larni bu tarmoklarga kuplab yunaltirish odat tusiga kirmokda. Agar ilmiy tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan xarajatlar xissasi maxsulot sotish xajmining 5 va undan ortik foizini tashkil etadigan bulsa, elektron xisoblash texnikasi, aloka jixozlari, elektron va elektr-nazorat ulchov asboblari, yarimutkazgichli asboblar, avtotexnika, yadro reaktorlari va boshkalar ilmtalab ishlab chikarish xisoblanadi. Ammo etakchi kapitalistik mamlakatlar eksportining umumiy xajmida ilmtalab maxsulotlar xissasi taxminan 30 % ga etib, turgun bulib koldi va firmalarning diqqat-e'tibori endilikda ximiya, metallurgiya, tukimachilik, elektro-energetika va boshka tarmoklar korxonalaridagi an'anaviy jixozlarning ilmiy-texnika darajasini kutarishga karatilmokda.

O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish Prezidentimiz I. Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, iqtisodiyotni erkinlashtirish - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning zrkini va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish jarayonlari orqali ta'minlanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin sog'lom raqobat muhiti yaratish bozor munosabatlarini shakllantirishning asosiy, muhim shartlaridan ekanligi belgilab qo'yilgan. Tovar bozorlarida sog'lom raqobat muhitining mavjudligi ishlab chiqaruvchilarni xo'jalik yuritishning samaraliroq usullari va yangi texnologiyalarni joriy etishga, tovarlarning sifatini hamda xizmat ko'rsatish darajalarini doimiy ravishda oshirib borish yo'llarini izlashga majbur qiladi, bu esa o'z navbatida nafaqat alohida olingan korxonaning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Shu bilan birgalikda raqobat - iste'molchilarga sifatli tovarlarni nisbatan arzon narxlarda sotib olish imkonini yaratib, ularning sotib olish qobiliyatini yanada oshiradi. Iste'molchilarning sotib olish qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, sog'lom, jamiyat farovonligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shunday qilib, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim shartlaridan bo'lib hisoblanadi.

Raqobat resurslar, mulk, tovar va xizmatlarning oldi-sotdi jarayonida yuzaga chiqadi. Raqobat bozorlar mavjudligi, ularning amal qilishi darajasiga bog'liq bo'ladi. Savdo-sotiq munosabatlari cheklangan sharoitda sog'lom raqobat muhiti bo'lishi mumkin emas. Hozirgi vaziyatdan kelib chiqqan holda Uzbekiston bozorlarida sog'lom raqobat muhitini barpo etishdagi muammolar quyidagilardan iborat:

- davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kuchliligi;
- tarmoqlar tuzilishidagi nomuvofiqliklar va ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalarning etishmasligi;
- soha va tarmoqlar miqyosidagi raqobatda adolat mezonlarining buzilishi;
- mansabdor shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidagi suiste'molliklari;

- narx belgilashda monopol mavqening saqlanib qolishi, xususan iqtisodiyotning agrar va industrial sektorida narxlarning keskin farqlanishi;
- kontrabanda yo'li bilan mamalakatga tovarlarning kirib kelishi;
- faoliyat turini va daromadlarni yashirish hollarining mavjudligi;
- sog'lom pul muomalasi uchun hozirgi sharoitdan kelib chiqadigan bozor infratuzilmasining etarli emasligi;
- milliy valyutani xorij valyutalariga erkin almashtirish shkoniyatlarining cheklanganligi;
- sub'ektlarning bozor iqtisodiyoti qoidalarini chuqur tushunib etmaganliklari;
- iqtisodiy jinoyatchilik holatlarining mavjudligi.

Mazkur muammolarni hal etish ularning bir-biriga ta'sirini aniqlash va qaysi muammoni birinchilardan bo'lib hal etish muhim janligini belgilab olish zarur. O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish borasida dolzarb muammolardan birinchisi narx belgilashda monopol mavqening saqlanib qolishi hisoblanadi. Xususan iqtisodiyotning agrar va industrial sektorida narxlarning keskin farqlanishi bo'lsa, ikkinchisi soha va tarmoqlarning raqobat kurishida teng ishtiroki uchun to'siqlar mavjudligi deb hisoblash mumkin. Muammolar ko'lamini aniqlash masalaning bir tomoni bo'lsa, asosiy jihat mavjud muammolarni qanday yo'l bilan hal etishga kelib taqaladi.

Buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlarda davlatning narx sohasidagi siyosati ko'p jihatdan narxlarni erkinlashtirish, milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Narxlarni erkinlashtirish - iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy okibatlarini ko'p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog'liq bo'ladi.

Narxlarni erkinlashtirish xom-ashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari /tasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo'llar bilan erkinlashtiriladi:

- a) narxlarni birdaniga, yoki "esankiratadigan" tarzda qo'yib yuborish;
- b) narxlarni sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish;
- v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish.

Uzbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. Shu yo'l bilan narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning keyingi bosqichida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarni erkinlashtirishning navbatdagi bosqichida (1994 yil, oktyabr, noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi. Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi. Narxlarni erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensasiyalar maqsadidagi jamg'armalar tuzildi, ish haqi, pensiya va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam suratda oshirib borildi, bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Aholining muhtoj shismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

Hozirgi paytda O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirishning ahamiyatini shunday ifodalash mumkinki, bu jarayonsiz raqobatni rivojlantirish bo'yicha barcha hatti-harakatlar ko'zlangan natijaga erishish imkonini bermaydi.

Respublika bozorlarida raqobat holatiga tashqi iqtisodiy faoliyat katta ta'sir ko'rsatadi. Bu sohani erkinlashtirish bo'yicha ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirilganligiga qaramay, hali ham ahamiyatli darajada tartibga solingan holatda qolmoqda. Eksportni kvotalash tashqi bozorlarga chiqishdagi korxonalar o'rtasidagi raqobatni cheklab qo'ymoqda. Qator pozisiyalar bo'yicha import poshlinalarining yuqori stavkalari o'rnatilishi munosabati bilan ko'plab to'siqlar saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur pozisiyalar bo'yicha importning bo'lmasligiga olib kelmoqda, buning oqibatida esa raqobat muhitining shakllanishi sekinlashmoqda.

Zamonaviy bozorda muvaffaqiyatli amal qilishning muhim shart-sharoitlaridan biri - valyuta resurslaridan foydalanish imkoniyatidir.

Hozirgi vaqtda konvertasiya bo'yicha ustuvorlik eksportga yo'naltirilgan hamda importning o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishda band bo'lgan nisbatan yirik korxonalarga, alohida qo'shma korxonalarga berilmoqdaki, bu holat ularning ustunligini ahamiyatli darajada oshirmoqda. Ko'plab yangi tashkil etilgan, ayniqsa o'rta va kichik korxonalar konvertasiya qilish, demak, arzon import xom ashyosidan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning narxini oshirib, Ayni paytda raqobatbardoshligini pasaytiradi. Buning ustiga, respublikada zarur xom ashyoning yo'qligi sharoitida ko'plab xo'jalik sub'ektlarining valyuta resurslaridan foydalanishining qiyinligi ularni o'z ishlab chiqarish faoliyatini qisqartirishi yoki bozordan chiqib ketishiga majbur qiladi. Shunga ko'ra, valyuta bozorining erkinlashtirilishi yirik korxonalar yakkahukmronligiga to'sqinlik qilish va raqobatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi — bu iqtisodiyot muhim ko'rsatkichlarining muhim parametrlarga nisbatan holatini kompleks baholashni o'z ichiga oluvchi taqqoslama tavsif bo'lib, bu orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xalqaro raqobatda namoyon bo'ladi.

Agar mamlakatdagi barcha resurslar, ishlab chiqarishning moddiy omillari, kapital, aqliy salohiyat va ishchi kuchi o'ta darajada samarali foydalanilayotgan bo'lsa, bu

mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardosh bo'ladi. Faqat o'sib boruvchi unumdorlik iqtisodiy o'sish samaradorligining asosiy mezonini hisoblanuvchi mamlakatdagi turmush darajasining oshishini ta'minlashi mumkin. U yoki bu mamlakat iqtisodiyoti holatining asosiy mezonini bo'lib aholi turmush darajasini tavsiflovchi YaIMning aholi o'rtacha jon boshiga to'g'ri keluvchi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Mamlakatlarning raqobat pozitsiyalari shuningdek jahon bozoridagi ekspansiya darajasi bilan ham tavsiflanadi va bu borada raqobatbardoshlikning muhim ko'rsatkichi bo'lib mamlakat eksport hajmi hisoblanadi. Masalan, jahon YaIMda YaIM ulushi 0,39%ga teng bo'lgan Gonkongning eksporti 3,7%ni, Singapurda 0,24% va 2%ni, Janubiy Koreyada 1,43% va 2,2%ni tashkil etadi. Bunday manzara ko'plab yangi industrial mamlakatlar iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ko'p darajali shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardoshligi;
- tarmoq raqobatbardoshligi;
- mamlakat raqobatbardoshligi.

Mazkur barcha raqobatbardoshlik darajalari o'rtasida etarli darajada mustahkam ichki va tashqi o'zaro bog'liqlik mavjud. Mamlakat va tarmoq raqobatbardoshligi pirovard natijada muayyan tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Tovarning raqobatbardoshligi deganda uning ham ichki, ham tashqi bozordagi muvaffaqiyatini belgilab beruvchi iste'mol, narx va sifat jihatidan kompleks tavsiflari tushuniladi.

Tovarning raqobatbardoshligi bevosita turli omillarga bog'liq bo'ladi. Ular orasida mahsulotning narxi va sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarish xarajatlari, mehnat unumdorligi va intensivligi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Respublika xalq xo'jaligining ko'plab tarmoqlarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xarajatlari rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 2-5 marta yuqori bo'lgan. Industrial rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda respublikadagi sanoat ishlab chiqarishi ko'prok material, metall va energiya sig'imiga ega.

Ishlab chiqarish material omillarining bunday qimmat sharoitida mamlakatimiz sanoati mahsulotlarining tashqi bozordagi narx bo'yicha raqobatbardoshligidan foydalanishga umid qilish qiyin.

Shu bilan bir vaqtda, respublikamizda yakka tartibdagi ish haqining o'rtacha darajasi sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ahamiyatli darajada (tarmoqlar bo'yicha olganda 30 va undan ko'p marta) past.

Jahon bozoridagi tovar raqobatbardoshligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib mehnat unumdorligi hisoblanadi, chunki aynan ishlab chiqarish jarayonida raqobatning moddiy asoslari tarkib topib, ular bozorda taqqoslama narx va foydalilik darajasi orqali namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda jahon raqobatbardoshligi bo'yicha birinchi o'ringa nobahoviy omillar chiqmoqda. Ular orasida tovarning sifati, uning yangiligi, ilmiylik va intellektuallik darajasi muhim o'rin tutmoqda.

Jaxon tabelida raqobatbardoshlik reytingini aniqlash uchun ko'p omilli modeldan foydalaniladi. Unda 381ta ko'rsatkich qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar 8ta umumlashtirilgan omillarga guruhlangan:

- 1) ichki iqtisodiy salohiyat;
- 2) tashqi iqtisodiy aloqalar;
- 3) davlat tomonidan tartibga solish;
- 4) kredit-moliya tizimi;
- 5) infratuzilma;
- 6) boshqaruv tizimi;
- 7) ilmiy-texnikaviy salohiyat;
- 8) mehnat resurslari.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish davrida sog'lom raqobatni shakllantirish iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish, uning tarkibini samarali tarzda qayta tuzish orqali ta'minlanishi mumkin. Bu esa mazkur jarayonlarni izchil va asosli tarzda ishlab chiqilgan davlat dasturlari asosida olib borilishini taqozo etadi.

4. Nazariy dars o'tish metodikasining umumiy masalalari

4.1. Kollejda nazariy darslarni tashkil etish shakli

Kollej ta'lim jarayonida o'tiladigan nazariy mashg'ulotlar o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, bo'lajak kadrlarni kasbiy shakllanishiga xizmat qiluvchi nazariy mashg'ulotlarni olib boruvchi fan o'qituvchisining pedagogik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb-hunar kollejlarida nazariy dars mashg'ulotlarni olib borish uchun kollej o'quvchilarining nazariy bilimlariga murojaat qilishning ba'zi yo'llari belgilangan. Nazariy ta'lim berishning keng tarqalgan, ammo kam samarali usuli mashg'ulot rejasida belgilangan ishlarni bajarishda asoslaniladigan ma'lum tushunchalar va qoidalarni og'zaki bayon etishdir.

O'qituvchining pedagogik mahoratini bir yoki bir necha ko'rsatkich bilan ta'riflab bo'lmaydi. Mashg'ulotdagi o'qituvchining pedagogik mahorati o'tilayotgan nazariy dars bilan belgilanadi. Nazariy darsdagi o'qituvchining faoliyati quyidagi to'rt guruh ko'rsatkichga ajratiladi:

- nazariy bilim berishda ta'limning texnik va didaktik vositalardan foydalanish darajasi;
- nazariy mashg'ulotning tashkiliy jihatdan talabga javob berish darajasi;
- mashg'ulot uchun tanlangan ta'lim metodining mavzuga mutanosibligi;
- nazariy mashg'ulotning tarbiyaviy ta'sir darajasi.

Nazariy ta'lim berish jarayonida o'qituvchi o'tiladigan materialni nazariy jihatdan tushuntirib beradi va mavzuga mos o'qitishning texnik vositalari keng foydalanadi. Nazariy mashg'ulotda o'quvchilar materialni chuqurroq o'zlashtirishlari uchun texnik vositalar keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi.

Dars mashg'ulotning jozibaligi va ko'rgazmali tashkil etilishi ko'p jihatdan o'qituvchining mashg'ulot davomida mavzuga taalluqli rangli plakatlar, diapozitivlar, jadval va diagrammalar tasvirlangan transporantlardan foydalanish darajasiga bog'liq. Bu jarayon o'quvchilarning materialni yaxshi idrok qilish darajasini oshirib, mashg'ulotni mazmunan boyitadi.

O'tilayotgan fan materiallari o'quv dasturiga muvofiq og'zaki, ko'rgazmali vositalar yordamida bayon qilinadi, tushuntiriladi va o'quvchilar ongida mavzu yuzasidan tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Nazariy ta'lim darslarini mavzu mazmunidan kelib chiqib, zamonaviy texnik vositalar, elektron darslik va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu ta'lim sifatini yaxshilab va o'quvchilar mavzuni qabul qiluvchanligini oshiradi.

4.2. Kollejlarning o'quv va yillik taqvimiy mavzular rejas

Kasb – hunar kollejlari dars jarayonini tashkil etishda o'quv rejas

Kollej ta'lim jarayonining o'quv rejas

1. O'quv rejas

2. Ta'lim qoidalariga asoslanadi, ya'ni kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim. Bu ta'limlar o'zaro bog'liqdir. Kollej va oliygohlarda olinadigan ta'lim umumiy o'rta ta'lim mazmuniga asoslanadi.

3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi ajratilgan soatlar, bolaning yoshi, kursiga va bilim saviyasiga qarab belgilanadi.

Fan bo'yicha yillik taqvimiy reja fan o'qituvchisi tomonidan o'quv rejaga va dasturiga muvofiq ishlab chiqiladi. Yillik taqvimiy reja shu fan bo'yicha o'quv yili muddatiga tuziladi. Taqvimiy reja o'quv yili boshida avgust kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilib ma'qullanadi va o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini tomonidan tasdiqlanadi. O'quv yili davomida fanning mazmunini taqvimiy mavzular rejas

O'quv - reja kiritilgan fanlar ketma – ketligi ta'limning ilmiyligi, g'oyaviyligi, milliyliги hamda o'zining kelajagiga munosibliги, ma'naviy etuk barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Kollej yillik taqvimiy mavzuli reja quyidagi bo'limlar keltirilgan tarzda tuziladi: bo'lim va mavzular nomi; dars ketma-ketligi; ajratilgan soat; muddati (darsni o'tish sanasi); dars turi (nazariy, amaliy, laboratoriya); ko'rgazmali qurollar; o'quvchi mustaqil ishi (uyga topshiriq); izoh.

Yillik taqvimiy mavzuli rejaning izoh qismida o'qo'v yili davomida shu mavzuni o'qitishda kelasi o'quv yilida kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar, o'qituvchining ayrim fikr-mulohazalari to'plab boriladi. Shu tariqa tuzilgan taqvimiy mavzuli reja yildan-yilga takomillashib boradi. Quyida yillik taqvimiy mavzuli rejadan namuna keltiramiz (4.1-jadval).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

O'qituvchi Qodirov Rustam Xalilovich ning Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti fanidan Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining II kurs BX – 22 guruh uchun 2010-2011 o'quv yiliga mo'ljallangan

YILLIK TAQVIMIY MAVZULAR REJASI
(namuna)

2010 yil 27 avgustda tasdiqlangan dastur asosida tuzilgan

Rejadagi jami soatlar	54	soat
Shu jumladan ma'ruza uchun	18	soat
Amaliy mashg'ulot uchun	36	soat

Ish reja Iqtisodiyot fanlari
kafedrasi yig'ilishida ko'rib
chiqildi va 29.08.2010 yilda
№ 07 sonli majlis qaroriga
asosan ma'qullangan

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Direktor muovini

«__» _____ 2010 y.

Kafedra mudiri _____

Qarshi 2010 yil

YILLIK TAQVIMIIY MAVZULAR REJASIDAN NAMUNA

Dars №	Bo'lim va mavzular nomi	Ajratilgan soat	Muddat	Dars turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	O'quvchilar uchun topshiriqlar	Izoh
1.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi	2	11.10.2010 й.	nazariy	Mavzuga taalluqli slaydlar, transportant, kodoskop, kompyuter va proektor	1, 2, 3 adabiyotlar	
2.	Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	2	23.10.2010 й.	nazariy	Mavzuga taalluqli rangli plakatlar, slaydlar, kodoskop, kompyuter va proektor	2, 3, 4 adabiyotlar	
4.	Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish	4	26.10.2010 й.	Amaliy mashg'ulot	Instruksion texnologik karta, animasion dasturlar, o'quv va uslubiy ko'rsatmalar, tarqatma va ishchi varaqalar	Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tayyorlash, 1, 2, 3 adabiyotlar	

4.3. Nazariy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

Mavzu: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi

Ta'lim berish texnologiyasi modeli (nazariy)

Vaqt: 2 soat <i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i> <i>Mashg'ulot rejası</i>	Talabalar soni 25 ta Nazariy 1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi 2. Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili 3. Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari 4. Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> <i>Pedagogik vazifalar:</i>	Shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish <i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi to'g'risida tushuncha berish	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini bayon qiladilar;
Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili tasnifini berish	Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari izoxlab beradilar;
Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha bilimlarini shakllantirish	Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha barcha tushunchalarini aytib beradilar;
Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish haqida tushuncha berish	Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish taxlilini izoxlab beradilar.
<i>Ta'lim usullari</i> <i>Ta'lim shakli</i> <i>Ta'lim vositalari</i> <i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Nazariy, ko'rgazmali va boshqalar Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash Ma'ruza matni, texnika vositalari va jihozlar Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar. Yozma so'rov: referat, test va boshqalar.
O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)	

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
I-bosqich. Kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
I I-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.	Javob beradilar Yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va boshqalar
I I I- bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

4.4. Nazariy dars o'tish metodikasi

Mavzu: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanish yo'llari

Darsning turi: Nazariy mashg'ulot.

Dars uchun ajratilgan vaqt 2 soat

Dars o'tish joyi: Ta'limning texnik vositalari bilan jihozlangan
fan xonasi

O'qitish uslubi: og'zaki, ko'rgazmali-tushuntirish, klaster

Darsning jihozlanishi. «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanish yo'llari» mavzusidagi multimediyali elektron darslik, taqdimot slaydalari, animasion dasturlar, diagramma va jadvallar, kompyuter va proektor va boshqa didaktik vositalar.

Nazariy mashg'ulot maqsadi

Asosiy maqsadi: O'quvchilarga paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llarini ta'limning zamonaviy texnik vositalari yordamida ko'rgazmali-tushuntirish, tayanch iboralarni yozdirish, chizmalarni chizish va mavzuni puxta o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari, muhim ahamiyati, zarurati va o'rnini tushuntirish, ularni o'z kasbiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirib borish.

Shakllantiruvchi maqsad: O'quvchilarni mavzuni mustaqil ravishda o'rganishga va tahlil etishga tayyorlash bilan ularda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

O'quv auditoriyasiga o'qituvchi kirganidan so'ng o'quvchilar bilan salomlashadi, o'quvchilar davomatini aniqlaydi va dars xonasini mashg'ulot o'tishga tayyorgarligini ko'zdan kechiradi.

1. O'quvchilar davomatini aniqlash va maxsus jurnallarga qayd etish;
2. Mavzu bo'yicha moddiy-texnik ta'minotning mavjudligi va tayyorligini tekshirish.

II. O'tilgan oldingi darsni o'quvchilardan so'rash

1. Oldingi darsda o'tilgan «Bozor iqtisodiyoti sharoitida paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligi» mavzusini so'rash. So'rash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- a) og'zaki savollar orqali.
 - b) test savollari orqali;
 - v) tayyorlab kelingan maxsus savollarni tarqatib;
2. O'quvchilar bilimini baholash.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Oldingi o'tilgan mavzuni so'rash muhim ahamiyatga ega. Mavzuni so'rashda o'tilgan mavzu qisqa va aniq hamda ravshan, fktlarga asoslanganligiga e'tibor berish lozim. Berilgan savollarga javob bergan o'quvchilarga baho qo'yishda ularning ayrim jihatlariga e'tibor berish lozim. Masalan, savol-javobning to'g'rililiga, o'quvchi o'zini tuta bilishiga, nutqiga, ishlatadigan so'zlariga, xatti-xarakatiga va boshqa jihatlariga va hokozo. Ularni baholashda iloji boricha yuqori ball qo'yish kerak. Bu o'quvchini shu fanga nisbatan qiziqishini, hurmatini oshiradi va ko'proq o'rganishga intilishiga olib keladi.

III. O'tilgan mavzuni yangi mavzu bilan bog'lash

Yangi mavzuni o'tishdan oldin o'qituvchi oldingi o'tilgan mavzuni takrorlab, uni yangi mavzu bilan bog'lashga harakat qilishi lozim. Shundagina o'quvchilar yangi mavzuni tushunib olishlari oson kechadi.

IV. O'rganilayotgan mavzuda tarqatmali materiallardan foydalanish

O'tilishi lozim bo'lgan yangi mavzu materiallari bo'yicha o'qituvchi tarqatmali materiallar tarqatadi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan «keys papka» o'quvchilarga taqdim etiladi. Ular mavzu matnlari, rasmlar, jadvallar, diagrammalar slaydalar shaklida bo'lishi mumkin. iloji boricha tayyorlangan o'quv tarqatma materiallari har bir o'quvchiga alohida-alohida darajada bo'lishi maqsadga muvofiq. Tarqatma materiallarni tashqi dizayniga alohida e'tibor berilishi lozim. Ular oddiy, tushunarli va o'quvchining diqqatini jalb etishi va mavzuga nisbatan qiziqishlarini orttirishi lozim. Binobarin, o'rganilayotgan material haqida qiziqarli muammolar berilgan bo'lishi lozim.

V. Tarqatmali materialdan foydalanish metodikasi

Tarqatma materiallar –ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1-2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg'ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko'p hollarda ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o'qib chiqib muhokama

qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo'llashda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

1. Ta'lim oluvchilarga haddan tashqari ko'p tarqatma materiallar bermaslik.
2. Sarlavhalarni bosh harflar bilan yozish, bir mashg'ulot uchun ikkita material zarur bo'lsa, ularga kod-nom berib ularni ajratish lozim.
3. Matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak.
4. Bir betda 80 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov belgisi) ishlatmasliklozim.
5. matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo'lishi kerak.
6. Varaq dizayni e'tiborni o'ziga tortishi kerak.

Ishchi varaqalar – guruhlarda, juft bo'lib va individual mashqlar bajarishda qo'llaniladi. Ular turli jadvallar shaklida bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan to'ldirish talab qilinadi.

Nazorat varaqalari – mashg'ulot yakunida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishda qo'llanilib, ular test savollari, masalalar kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

VI. O'tilgan mavzuni yangi mavzu bilan bog'lash

Yangi mavzuni bayon etishdan oldin o'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlab, uni yangi mavzuga bog'lashi o'quvchilarning yangi mavzuni tez idrok qilishlari va oson tushunishlariga yordam beradi.

VII. Yangi mavzuni bayon etish

Yangi mavzuni bayon etishdan oldin, kompyuter proektori yordamida mavzu va mavzu rejalari doskaga proeksiyalanadi. Mavzu va rejalar imkon boricha darsning oxirigacha saqlanishi maqsadga muvofiq.

Mavzuga doir tarqatma materiallar o'quvchilar e'tiboriga etkaziladi va dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalaniladi.

VIII. Ta'limning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish

7.1. Maqsad:

Zamonaviy ta'lim vositalaribilan tanishish. Texnik vositalar bilan ishlashda psixologik to'siqlarni olib tashlash. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Zamonaviy o'quv vositalarini qo'llashda qiziqish va ma'suliyatni oshirish.

7.2. Natija:

1. Qanday zamonaviy o'qitish vositalarni borligini biladi.
2. Texnik vositalarni dars jarayoniga qo'llashda boshlang'ich ko'nikmalar hosil bo'ladi.

3. O'quv dasturlarni tushunadi, kompyuterda slaydlarni tuza oladi.

7.3. talab etiladigan vaqt: 15 minut

7.4. Zarur bo'ladigan materiallar:

a) texnik vositalar: kompyuter, kodoskop, videoproektor, videoko'z, videoproektor, elektron doska.

b) o'quv va ko'rgazmali materiallar: elektron darslik, slaydlar.

7.5. Foydalanish tavsiloti:

1. O'quvchi darsni tushunishini hamda har bir o'quvchining ongida bir xil tushuncha hosil bo'lishini ta'minlaydi.

2. O'quvchilarda qiziqish ortadi, ularning hayolatini uyg'otish yo'li bilan motivasiyalaydi.

3. Vaqt tejalishini ta'minlaydi, chunki bunda batafsil va so'zma-so'z og'zaki tushuntirishlar talab etilmaydi.

4. Real modellarni ishlatishda va diogrammalarni ishlab chiqishda o'quvchilar qatnashishi imkoniyatini beradi.

5. O'tilgan mavzuning mazmuni turli yo'llar bilan qisqacha umumlashtirilishi orqali o'rganish jarayoni samaradorligini oshiradi.

6. Berilgan materiallar o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi.

IX. Yangi mavzuni mustahkamlash

Dars oxirida o'quvchilar yangi o'tilgan mavzuni chuqurroq tushunishlari uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berish;

2. Mavzu yuzusidan o'quvchilarga savol berish va o'tilgan darsni xulosalab yakunlash.

X. Uyga vazifa berish

Uy vazifalarini tanlaganda, ularni o'quvchilarga topshiriq qilib berishda, bu vazifalar o'quvchilarning qiziqishlariga mos kelishi, ularni bajarishda qiyinchiliklarga uchramasliklari kerak. Ko'pincha o'quvchilarga o'qituvchi tushuntirgan materialni mustahkamlashga oid vazifalar beriladi.

XI. Darsga yakun yasash

Darsning oxirida o'rganilgan materiallar bo'yicha umumiy xulosalar qilinadi. Darsga yakun yasaladi. Kelgusi mashg'ulotga doir tarqatma materiallar tarqatiladi. Kelgusi mashg'ulotning mavzusi o'quvchilarga etkaziladi.

5. Амалий машғулотни ўтказиш методикасининг умумий масалалари

5.1. Амалий машғулотларни ташкил этиш шакллари

Амалий машғ'улот xonalari o'quv faniga moslab jihozlangan va fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar, ta'limning zamonaviy texnik vositalari, xona derazalarini qorong'ilatish moslamalari va jihozlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Xonani jihozlashda axloq – aqidalarga ham e'tibor beriladi.

Fanlardan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlariga atroflicha tayyorgarlik ko'rilishi va o'tkazilishi lozim. Ba'zi hollarda amaliy mashg'uloti nazariy darsga ulanib ketishi mumkin. Amaliy mashg'uloti o'tkazishning turli qoidalari mavjud bo'lib, bu bevosita va bilvosita boshqariladigan mashg'ulotlar to'g'risida to'xtalamiz.

Bevosita boshqariladigan amaliy mashg'ulotida ma'ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalaniladi. Bularga sxemalar, video tasvirlar va jihozlarning asl nusxalari kiradi. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materialini o'quvchilar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar. Agar mashg'ulotlar savol va javoblarga asoslangan o'quv suhbatlari, muammoni muxokama qilish tarzida olib borilsa, yaxshi samara beradi.

Bilvosita boshqariladigan amaliy mashg'uloti asosan o'quvchilarga yo'naltirilgan bo'lib, ular tayyorlangan topshiriqlar vositasida matnli kitoblarni o'qish mustaqil o'rganish orqali mashg'ulot olib borish, biror vaziyatni o'rganish, o'quvchining o'zi mustaqil o'rganishiga turtki berish, bilimlarni o'zlashtirishga turtki berish kabilar kiradi.

An'anaviy tarzda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda 4...5 o'quvchi tayyorlanib kelgan materialini o'qib eshittirish yoki gapirib berishi orqali ular tinglanib baholanadi. Qolgan o'quvchilar faqat tinglaydi, boshqacha qilib aytganda ular mashg'ulotda passiv ishtirokchi sifatida mashg'ulotda fikr bildirmaydi. Bu esa o'quvchining kelgusidagi dars mashg'ulotiga tayyorlanishida salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Amaliy mashg'ulotda doskaga chiqqan o'quvchi esa kelgusi darsdagi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rmaydi. Chunki bu darsda oldingi darsda baholanmagan o'quvchilardan so'ralishi hammaga ma'lum. Bu kabi tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning amaliy mashg'ulotdagi tayyorgarligini bugungi kun talabi darajasida deb bo'lmaydi. Bu kabi salbiy holatlarni olidini olishda amaliy mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda olib borilishi maqsadga molik. Men amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda «Munozara» metodini qo'llashni taklif etayapman. Bunda o'quv auditoriyasidagi partalar davra suhbatini ko'rinishida, ya'ni doira shaklida qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar bir-biriga yuzma-yuz o'ttiradilar. Amaliy mashg'ulotdagi barcha topshiriqlar ularga oldingi darsda tarqatma material ko'rinishida tarqatiladi. Topshiriqni bajarib kelgan o'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bunda o'qituvchi passiv ishtirokchi sifatida ularning darsdagi faoliyatini kuzatadi. Ular bildirgan fikrlar e'tirozsiz qabul qilinib, o'qituvchi tomonidan qayd etib boriladi. Topshiriq sifatida berilgan muammo echimlarini aniqlashda o'qituvchi o'quvchilar-ning faolligini oshirishga qaratilgan hatti-harakatni bajaradi, ya'ni u barcha o'quvchilarni berilgan topshiriq echimini hal etishdagi fikrlarini eshitishga va ularni baholashga harakat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar berilgan topshiriqlarni ma'lum bir bosqichda mustaqil bajarishlari uchun mashg'ulot modeli va texnologik kartalari tuziladi (5.1-jadval).

5.2. Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi

Mavzu: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanish yo'llari

Ta'lim berish texnologiyasi modeli (amaliy)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 25 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Amaliy
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi 2. Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili 3. Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari 4. Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi to'g'risida tushuncha berish	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini bayon qiladilar;
Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili tasnifini berish	Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari izoxlab beradilar;
Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha bilimlarini shakllantirish	Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha barcha tushunchalarini aytib beradilar;
Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish haqida tushuncha berish	Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish taxlilini izoxlab beradilar.
<i>Ta'lim usullari</i>	Amaliy, ko'rgazmali va boshqalar
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va jihozlar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshqalar. Yozma so'rov: referat, test va boshqalar.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
I-bosqich. Kirish (10 daq.)	1.4. Amaliy mashg'ulot topshiriqlari va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.5. Berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.6. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
I I-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Tezkor-so'rov, savol-javob, aqliy hujum, klaster orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.	Javob beradilar Yozadilar Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va boshqalar
I I I- bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Amaliy mashg'ulot yakunida, bajarilgan topshiriqlar tahlil qilinadi, kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash me'zonlarini etkazadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

5.3. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi

Mavzu: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanish yo'llari

Amaliy mashg'ulotni o'tkazishdan maqsad: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanish yo'llari bo'yicha o'quvchilarga ma'lumot berish.

Mashg'ulot o'tkazish joyi: ta'limning texnik vositalari bilan jihozlangan fan xonasi.

Mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda jamoa bo'lib, i Paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish intizomini tarkib toptirish va maxsulotlardan tejamkorlik bilan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib borish.

Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt: 4 soat.

Mashg'ulotning didaktik va moddiy ta'minoti: amaliy mashg'ulot mavzusining elektron talqini, mashg'ulot materialiga doir taqdimot slaydalari, ko'rgazmali qurollar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, tarqatma materiallar, grafoproektor, kodoposobiyalar, kompyuter va proektor, mavzu yuzasidan foydalanish uchun adabiyotlar, kitob javonlari, internet va axborot resurslari markazi elektron kutubxonasi tarmog'iga ulangan kompyuterlar va boshqa didaktik materillar.

I. Tashkiliy qism

O'quvchilar bilan salomlashish, ularning mashg'ulotga tayyorgarligini, xonaning mavzuga doir moddiy ta'minotini ko'zdan kechirish, o'quvchilar davomatini aniqlash va qayd etish.

II. O'quvchilarni amaliy mashg'ulot nomi va maqsadi bilan tanishtirish (tayyorlov bosqichi)

1. O'quvchilarga amaliy mashg'ulotning mavzu va maqsadi tushuntiriladi. Ularga 4 soatlik amaliy mashg'ulot davomida "Paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari" mavzusini o'rganishda «Kichik guruhlarda ishlash» metodidan foylanish tartiblari tushuntiriladi.

2. O'quvchilarning nazariy bilimlarini tekshirish. Paxta etishtirishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llari bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida ularga quyidagi savollarni berishi mumkin:

3. Mashg'ulot topshirig'ini bajarish tartibi. Amaliy mashg'ulot topshirig'i tarqatma materiallarda bayon etilib ularga tarqatilgan va unda qo'yilgan muammo echimini aniqlashda zaruriy manbalar keltirilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarga mashg'ulot topshirig'ini bajarishda zaruriy manbalardan foydalanish yo'llari va topshiriqlarni bajarish ketma-ketligi tushun-tiriladi.

4. O'quvchilarga amaliy mashg'ulot topshirig'ini ma'lum bir ketma-ketlikda bajarishlari uchun instruksion-texnologik kartalar beriladi. Unda ish bosqichlari va mazmuni, topshiriqlarni bajarishdagi o'quvchi va o'qituvchi faoliyatlari keltirilgan bo'ladi.

III. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini o'quvchilarning mustaqil bajarishlari (amalga oshirish)

1. O'qituvchi o'quvchilarga amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish bo'yicha zaruriy ma'lumotlar beriladi. Bunda o'qituvchi berilgan topshiriqlar bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. «Kichik guruhda ishlash» usuli maqsadni amalga oshirish vositasi ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon etish orqali muammo echimini izlash to'g'risida buyruq beriladi. O'qituvchi mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undaydi, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishishi lozim.

2. Tarqatma materiallarda berilgan muammo echish yo'llarini jamoaviy muhokamada izlanadi, echimlar e'tirozsiz qayd etiladi. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi – yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

Bu tarzda bildirilgan fikr va g'oyalar kichik guruh va jamoada tahlil etiladi va aniqlangan echimlarning maqsadga mosligi asoslanadi.

IV. O'quvchilar tomonidan bildiriladigan fikr va g'oyalarni tinglash (g'oyalarni kiritish)

1. Mashg'ulotda ma'qul deb topilgan fikr va g'oyalar «Kichik guruhda ishlash» metodida bayon etiladi. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalarga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

2. Bunda o'qituvchi g'oyalarni magnitofon yoki videolentaga, qog'oz varag'iga yoki doskaga yozib olishni tashkil qiladi.

3. Yangi g'oyalarni bildirish davom etar ekan, muammoning yagona to'g'ri echimini e'lon qilishga shoshilmaslik lozim.

4. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash hamda bildirilgan fikrlar ustidan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

5. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va g'oyalarni baholanishiga yo'l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya) lari baholanib boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar.

Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

V. Guruh jamoasi bildirgan fikr va g'oyalarni tahlil etish

1. O'qituvchi taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oya-larni tahlil qilishni tashkil qiladi. Bunda o'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qiladi. Muammo echimini yagona to'g'ri javobi e'lon qilinadi, uni maqsadga mosligi asoslanadi hamda to'g'ri javob muallifi rag'batlantiriladi.

V. Yakun yasash va baholash

O'qituvchi o'quvchilar faoliyatiga yakun yasaydi, tahlil qiladi va o'quvchilarni baholaydi hamda baholar e'lon qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, samarali amalga oshirilishini ta'minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini samarali faoliyatiga halal berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

hududdagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlar qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda barcha imkoniyatlarni safarbar qilish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

hududdagi kichik biznes sub'ektlarining energiya, gaz, suv va kanalizasiya, issiqlik ta'minoti va shu kabi muhandislik-kommunikasiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish hamda bu boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

mahallalarda oilaviy biznesni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash; shu asosda oilaviy biznesni tashkil qilishning namunaviy shakllarini tavsiya etish va qo'llab-quvvatlash;

hududda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xususan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab topish;

hududdagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga yordam ko'rsatish va rag'batlantirish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishi ta'minlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari:

1. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 1999. –16 b.
2. Qonun. O'zbekiston Respublikasining “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni (Yangi tahrirda)// Xalq so'zi. – 15 oktyabr 2004 yil
3. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida» gi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlar. –Toshkent, O'zbekiston, 1992. -19 b.
4. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida» gi qonuni. // O'zbekiston ovozi. 10 yanvar 1992 yil.
5. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «YEr kodeksi». // Soliq to'lovchining jurnali, -Toshkent, 1998. № 7-8. –B. 12.
6. Qonun. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonuni. // Soliq to'lovchining jurnali, Toshkent, -1998. -№7-8. –B. 21-25.
7. Qonun. O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi qonuni. // Xalq so'zi. 6 iyun 1998 yil.
8. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, -Toshkent, Adolat. -1999. –136 b.
9. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –Toshkent, Adolat. -1999. – 21 b.
10. Qonun. O'zbekiston Respublikasining Lizing to'g'risidagi qonuni. ((Xo'jalik va huquq. –Toshkent, 1999. -№ 6. – B. 5.
11. Qonun. O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida”gi qonuni. // Xalq so'zi. 7 yanvar 2012 yil.

II. Prezident I.Karimov asarlari, ma'ruzalari va nutqlari:

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istikdol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992. 78 bet.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. T., «O'zbekiston», 1992. 62 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 1993. 56 bet.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O'zbekiston», 1994. 299 bet.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995. 269 bet.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997. 326 bet.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998. 686 bet.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda: Prezident Islom Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy

- Majlisining XIV sessiyadagi ma'ruzasi. 1999 yil 14 aprel. T., «O'zbekiston», 1999. 48 bet.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000. 112 bet.
10. Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi - mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. 2003 yil 17 fevral // Xalq so'zi, 2003 yil 18 fevral.
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. -96 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2004 yilda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqi. “Xalq so'zi” 2004 yil, №28.
13. I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Turkiston gazetasi, -Toshkent, 2005. 29 yanvar № 8. (14817.).
14. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2009. -41 b.
15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2010. 30 yanvar
16. I.A.Karimov. BMT sammiti mingyillik rivojlanishi maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so'zi, 2010 y. 22 sentyabr.
- 18 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” 2010 yil 13-noyabr.
19. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-traqqiyotimizning muhim omilidir. “Turkiston” 2010 yil 8-dekabr.
20. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Turkiston” 2011 yil 22-yanvar.
21. Karimov A.I. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2011 yilda asosiy yakunlari hamda 2012 yilda O'zbekistonni ijtmoy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2012. 20 yanvar
22. Karimov I.A. Mustaqillikka erishish ostonasida T: “O'zbekiston”, 2011.-440 b.

III. Ilmiy asarlar va risolalar.

1. Vohobov A.V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. T., «Moliya», 2002. 330 bet.
2. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rO'nochnoy ekonomiki Koll. Avt.: R. A. Alimov, A. K. Bedrinsev, A. F. Rasulov i dr.// Pod red. A.X. Xikmatova. – T.: O'zbekiston, 2001.- 352 b.
3. Xakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – (O'quv qo'llanma) T., TDIU, 2004.-160 b.
4. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Xakimov R., Yusupov M.S., Oripov M.A., O'roqov N.I. - Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi – (O'quv qo'llanma) –T.: TDIU, 2004. – 176 b.
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jaev T.L., To'raxo'jaev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.I, Aripov I.M. -Jahon qishloq xo'jaligi. – (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2004. – 128 b.
6. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti – (darslik). – T.: TDIU, 2004. – 304 b
7. Djumaqulov T.T., Safarova Z.G. Ispolzovanie trudov I.Karimova v predpodavanii ekonomicheskoy teorii i ego vklad v ee razvitie. T., «Abu Ali ibn Sino». 2002. 231 s.
8. 3. Karimov R.K., Karimova T.A. Milliy model muammolari. T., «O'zbekiston», 1993. 64 bet.
9. Karimova G. Politiko ekonomicheskie reformm v Uzbekistane: realii i perspektiv1. T., «O'zbekiston», 1995. 44 s.
10. Komilova F. Xalqaro turizm bozori. T.: 2001. 64 bet.
11. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: Prinsigsh, problemsh i poli-tika. V 2-t. Per. s angl. 11-go izd. T.1. M., «Respublika», 1992. 399 s.
12. Rasulov M. Bozor iqtisodi asoslari. T., «O'zbekiston», 1997. 383 bet.
- 13.8. To'xliev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi». 1998. 239 bet.
- 14.9. To'xliev N., Taksanov A. Nasionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. T., «O'qituvchi», 2000. 367 s.

Mundarija

Kirish	4
1. Fan va mavzuning tavsifi	5
1.1. Kasb-hunar kollejlarida «Dehqon va fermer xo‘jaliklari iqtisodi» fanining tutgan o‘rni va fanlararo bog‘lanishi	5
1.2. Tanlangan mavzuning dolzarbligi	6
1.3. Kasb-hunar kollejlarining maqsad va vazifalari	7
2. O'QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI.....	8
2.1. Umumdidaktik tamoyillar	8
2.2 Dars va uning turlari.....	10
2.3. Nazariy dars metodikasi	12
2.4. Kasb-hunar kollejlarida o‘qitishning mazmuni.....	13
2.5. Darsning tashkiliy shakllarini tanlash va asoslash.	14
Ta’limning tashkiliy shakllari	14
2.6. Dars -o‘quv ishlarini tashkil etishning asosiy tashkiliy shakli.....	15
2.7. Dars, uning turlari va tuzilishi, darsga bo‘lgan talablar	16
2.8. O‘qitish metodini tanlash va asoslash	18
2.9. An’anaviy va noan’anaviy o‘qitish metodlari.....	20
2.10. Ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari	22
2.11. Masofadan o‘qitish texnologiyasi	25
3. IJTIMOIIY-IQTISODIY MASALALAR MAJMUASI	27
3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning rivojlanishi.....	27
3.2. Kichik tadbirkorlikning tashkiliy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili.....	32
3.3 Kichik korxonalarning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari..	37
3.4. Tadbirkorlik sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasidan foydalanish.....	40
4. Nazariy dars o'tish metodikasining umumiy masalalari	46
4.1. Kollejda nazariy darslarni tashkil etish shakli	46
4.2. Kollejlarning o'quv va yillik taqvimiy mavzular rejasi.....	47

4.3. Nazariy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi ...	50
4.4. Nazariy dars o'tish metodikasi.....	52
5. Amaliy mashg'ulotni ўtkaziш методикасининг умумий масалалари	56
5.1. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari	56
5.2. Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi	57
5.3. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	59
Xulosa va takliflar.	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	63